

O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligi  
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tarix fakul`teti

**Abdullaev Ruslan Atabekovich**

**Milliy g`oyaning ma`naviy yangilanishdagi o`rni  
va xizmati**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

Ilmiy rahbar:

f.f.n., dots.Z.Seitova

**NUKUS - 2016**

Bitiruvchi talaba Abdullaev Ruslan Atabekovichning «Milliy g`oyaning ma`naviy yangilanishdagi o`rni va xizmati» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi Milliy g`oya, ma`naviyat asoslari va huquq ta`limi kafedrasining 2016 yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ kungi «\_\_\_\_\_» - sonli bayoni asosida davlat attestatsiya komissiyasiga himoyaga tavsiya etildi.

Milliy g`oya, ma`naviyat asoslari  
va huquq ta`limi kafedra mudiri:

A.Embergenov

Bitiruvchi talaba Abdullaev Ruslan Atabekovichning «Milliy g`oyaning ma`naviy yangilanishdagi o`rni va xizmati» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi Milliy g`oya, ma`naviyat asoslari va huquq ta`limi kafedrasining 2016 yil «\_\_» \_\_\_\_ kungi «\_\_\_\_\_» - sonli bayoni va institut rektorining 2016 yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ kungi «\_\_\_\_\_» - sonli buyrug`i bilan davlat attestatsiya komissiyasiga himoyaga yuborildi.

Davlat attestatsiya komissiyasi qarori bilan Abdullaev Ruslan Atabekovichning bitiruv malakaviy ishiga \_\_\_\_ ball qo`yildi.

# Milliy goyaning ma`naviy yangilanishdagi urni va xizmati.

## Mundarija:

Kirish.....	4
<b>I-bob Milliy goya va mustaqillikning ma`naviy asoslari.</b>	
1.1. Milliy g`oya - mohiyat va talqin.....	6
1.2. Milliy g`oya, ma`naviyat tushunchasi hamda uning mazmun va mohiyati.....	11
1.3. Milliy xavfsizlikni ta`minlashda milliy g`oyaning o`rni va ahamiyati .....	25
<b>II-bob. Milliy goyaning ma`naviy yangilanishdagi urni va xizmati.</b>	
2.1. Jamiyatni ma`naviy yangilash g`oyasining mohiyati.....	31
2.2. Ma`naviyat va jamiyatning yangilanishi.....	40
2.3. Mustaqillikning ma`naviy asoslari.....	48
Xulosa.....	50
Adabiyotlar.....	52

**Milliy g`oya** deganda ajdodlardan avlodlarga o`tib, asrlar davomida e`zozlab kelinayotgan, shu yurtda yashayotgan har bir inson va butun xalqning qalbida chuqur ildiz otib, uning ma`naviy ehtiyoji va hayot talabiga aylanib ketgan, ta`bir joiz bo`lsa, har qaysi millatning eng ezgu orzu-intilish va umid-maqсадlarini o`zimizga tasavvur qiladigan bo`lsak, o`ylaymanki, bunday keng ma`noli tushunchaning mazmun-mohiyatini ifoda qilgan bo`lamiz.

**Islom KARIMOV**  
**“Yuksak ma`naviyat – engilmas kuch” kitobidan.**

### **Kirish.**

**Mavzuning dolzarbligi:** Globallashuv jarayoni yuz bermoqda. Globallashuv jarayoni keldimi biz ham unga qo`shilamiz, boshqa iloji yo`q faqat bu jarayonda biz o`z manfaatlarimizni ko`zlashimiz kerak, ya`ni o`zligimizni saqlab qolishimiz kerak, betakror qiyofamizni saqlab qolishimiz kerak. Bunday vaqtda bizga ma`naviyat asos bo`ladi, himoya qiladi. Ma`naviyatning davlat siyosati darajasiga ko`tarishning dolzarbligi ham shunda, ya`ni o`zligimizni saqlab qolish, mustashkamlash va yanada rivojlantirish. Dunyodagi zo`rovon kuchlar qaysi bir davlatni egallamoqchi bo`lsa, uni qurolsizlantiradi, ya`ni uning uchun muhim bo`lgan milliy qadriyatlaridan, tarixidan va ma`naviyatidan judo qilishga urinadi. Bunday vaqtda bizga ma`naviyat eng kuchli himoya bo`la oladi.

**Mavzuning maqsadi va vazifasi:** Jamiyatni ma`naviy yangilash. Bu – yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq erkinligi va farovonligiga erishish va komil insonni tarbiyalash ijtimoiy hamkorlik va millatlararo totuvlik, diniy bag`rikenglik kabi ko`p-ko`p muhim masalalardan iborat. BU ulkan vazifalarni ma`naviyatimizni milliy istiqlol g`oyalari bilan boyitib borsakkina amalga oshirishimiz mumkin bo`ladi.

Yoshlar hayotida ma`naviyatni e`tiqodga aylantirish, O`zbekistonni rivojlantirishda ma`naviyatni bir mayoq sifatida bilish va bunday qarashlarni yoshlar ongiga singdirish. Qachonki biz yoshlar ma`naviyatli bo`lsak madaniyatli bo`lamiz yuksalamiz va dunyoni lol qoldiramiz.

**BMIning ilmiy yangiligi:** Milliy goya va mustaqillikning ma`naviy asoslari, milliy g`oya - mohiyat va talqin, milliy g`oya, ma`naviyat tushunchasi hamda uning mazmun va mohiyati; milliy goyaning ma`naviy yangilanishdagi urni va xizmati; jamiyatni ma`naviy yangilash g`oyasining mohiyati; ma`naviyat va jamiyatning yangilanishi; mustaqillikning ma`naviy asoslari bitiruv malakaviy ishimizning ilmiy yangiligini kursatadi.

**BMIning ilmiy va amaliy ahamiyati:** Buguni kunda jamiyatimiz oldida turgan ezgu maqsadlarni to`la ro`yobga chiqarish uchun xalqimizning milliy taraqqiyot mafkurasini chuqur o`rganib o`zgartirish va undagi g`oyalarga nisbatan mustahkam ishonch-e`tiqodni shakllantirish taqozo etiladi.

G`oyaviy-mafkuraviy sohada erishilgan yutuqlarimizni mustahkamlab, yangi bosqichlarda milliy xavfsizlikni mustahkamlashni tizimli tartibda izchil rivojlantirish va bu boradagi vazifalarni ijtimoiy taraqqiyotimizning asosiy tamoyillari, nazariy-metodologik asoslari hamda amaliy yo`l yo`riqlariga muvofiq samarali hal qilish, milliy taraqqiyot g`oyasining davlatimiz va jamiyatimiz qurilishiga oid ustuvor masalalarning atroflicha yoritilganligi mazkur ishimizning amaliy ahamiyatini belgilaydi. Mustaqillik yillari barcha sohalarda bo`lgani kabi, milliy xavfsizlikni ta`minlash yo`nalishida ham ulkan ishlar amalga oshirildi. Shunday ekan mazkur bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi shundaki mustaqillik yillarida yurtimizda milliy xavfsizlik va barqarorlikni ta`minlash borasida amalga oshirilgan ijtimoiy-siyosiy o`zgarishlarning ma`no-mazmuni atroflicha tadqiq qilinishi va talaba-yoshlarga mazkur yo`nalishda tushunchalar berishda foydalanish amaliy natijalar berishi hisoblanadi.

**BMIning malakaviy ishining tuzilishi:** Mazkur bitiruv malakaviy ishi kirish, 2-bob, 6-paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

## **I-bob Milliy goya va mustaqillikning ma'naviy asoslari.**

### **1.1. Milliy g'oya - mohiyat va talqin.**

G'oya Falsafaviy tafakkur doirasida shakllangan nafaqat eng qadimiy, balki mazmunan keng va xilma-xil ma'nolarda ham talqin etilgan tushunchalardan biridir.

Avvalo, g'oyani bilish jarayonining muayyan natijasi sifatida tushunish keng tarqalganligini ta'kidlash zarur. Shu ma'noda, u o'zi aks ettirayotgan ob'ekt, hodisa, jarayonni o'rganish natijasida hosil bo'lgan bilimni ixcham va umumlashtirilgan holda ifoda etadi. Bunda, bir tomondan, hayotiy-amaliy faoliyat davomida to'plangan tajriba, ikkinchi tomondan, ilmiy bilimlar erishgan natijalarga tayaniladi.

Ilmiy fakt, muammo, faraz, nazariya kabi voqeelikni aks ettirish, ilmiy bilishning o'ziga xos shakli, yangi bilim va paradigma sifatida chiqadigan g'oyada va bundan keyin qay yo'nalishda o'rganishlari zarurligi haqidagi ko'rsatma, maqsad botiniy tarzda mujassam bo'ladi va shu tufayli u ulkan yo'naltiruvchilik rolini o'taydi.

Ilmiy g'oyaga xos bo'lgan xususiyatlar qarab chiqilganida, g'oyaning tarixiy taraqqiyotdagi o'rni yanada oydinlashadi. Har qanday g'oya kabi ilmiy g'oya ham ulkan yo'naltiruvchilik rolini o'taydi. Masalan, atomlarning mavjudligi haqidagi g'oya asrlar davomida ilmiy izlanishlarning mavjudligi haqidagi uni topish, xususiyatlarni tadqiq etish, duyoning tuzulishidagi o'rnini aniqlashga yo'naltirib keldi natijada atom kashf qilindi. Bu kashfiyot olamning tuzulishi to'g'risidagi tasavvurlarning butunlay o'zgarishiga olib keldi. Ammo ilm-fan taraqqiyotida o'ta salbiy iz qoldirgan g'ayri ilmiy g'oyalar ham bo'lgan.

Ilmiy g'oyalar taraqqiyot omiliga aylanishi uchun ma'lum bir shart-sharoit bo'lishi kerak. Ya'ni, birinchidan jamiyatning umumiy bilim darajasiga yuzaga kelgan yangi bilishni qabul qilishga tayyor bo'lishi va ikkinchidan, uni tekshirib ko'rish, tasdiqlash yoki inkor etish imkoniyati-qurollar, vositalar, moliyaviy resurslarga ega bo'lishi lozim. Aks holda, u ma'lum madaniy-ma'rifiy hodisa sifatida qolib ketadi.

Ijtimoiy g'oya ilmiy g'oyaga xos bo'lgan yuqoridagi xususiyatlar bilan bir qatorda ulkan uyushtiruvchilik rolini ham o'taydi. Shu bilan birga ilmiy

g‘oyalarning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni aksariyat hollarda bilvosita bo‘lsa, ijtimoiy g‘oyalar sotsial jarayonlarga bevosita ta’sir o‘tkaza oladi. Ammo ijtimoiy g‘oyaga xos bo‘lgan yo‘naltiruvchilik o‘z mohiyatiga ko‘ra ijobiy ham, buzg‘unchi ham bo‘lishi mumkin. “Milliy g‘oya millatni, xalqni birlashtirishga qaratilishi kerak. Millatni bo‘lib tashlashga asos bo‘ladigan g‘oya buzg‘unchi g‘oyadir”.<sup>1</sup>

Millatni halokat yoqasiga keltirib qo‘ygan buzg‘unchi g‘oyalar tarixda ko‘plab bo‘lgan. Har qanday jamiyat yaxlitligini tashkil etsada, u xilma-xil elementlarning birligi sifatida chiqadi.

Jamiyat xilma-xil elementlarning birligi ekan, o‘zini muayyan ijtimoiy guruh manfaatlarining yakkayu-yagona ifodachisi deb biladigan, shunga harakat qiladigan kuchlar topilishi tabiiy. Bunday paytda milliy hayotning chigallashuvi, ichki ziddiyatlarning keskinlashuvi yuzaga keladi.

Yuqoridagi xususiyatlarni hisobga oladigan bo‘lsam, “ijtimoiy g‘oya” va “ijtimoiy mafkura” hamda “Miliy g‘oya” va “Milliy mafkura” tushunchalari o‘rtasida yaqinlik borligi anglashiladi.

Biroq bu ularni ba’zan uchrab turganidek sinonim tushunchalar sifatida ishlatish uchun asos bo‘la olmaydi. Chunki, birinchidan, “ideologiya” g‘oya haqidagi ta’limot, boshqacha aytganda, “g‘oyalar tizimi” ma’nosini anglatadi. Biz “ideologiya”ning sinonimi sifatida qo‘llyotgan “mafkura” bilan “g‘oya” so‘zi o‘rtasida bunday o‘zak birligi yo‘q.

Bunga aniq ishora bo‘lmasada, mafkura ham g‘oyaviy qarashlar tizimini ifodalab kelishini unutmazlik lozim. Demak, mafkura bir butun qarashlar, g‘oyalar tizimi ekani, u g‘oyaga nisbatan ham mazmunan ham, hajman kengroq tushuncha sifatida namayon bo‘ladi.

Ikkinchidan, g‘oyadan farqli ravishda har qanday mafkurada ijtimoiy voqelikni saqlab qolish yoki o‘zgartirishga qaratilganlik, ya’ni maqsadlar kompleksi aksariyat hollarda g‘oyaga xos bo‘lgani kabi botiniy emas, balki zoxiriy tarzda mavjud bo‘ladi va uning o‘zagini tashkil etadi.

---

<sup>1</sup> Каримов И. А. Ўз келажакимизни ўз қўлимиз билан қурмоқдамиз. 7-жилд. – Т.: Ўзбекистон: 1999.- 308 б.

Uchinchidan, har qanday ijtimoiy g'oya ma'lum bir mafkuraviy qarashlar doirasidagina o'zining uyushtiruvchilik va yo'naltiruvchilik salohiyati, jozibadorlik kuchini namoyon qila olishini ham unutmaslik lozim.

To'rtinchidan, har qanday g'oya faqat muayyan mafkura doirasida amalga oshirilgan tarbiya natijasidagina e'tiqodga aylanishi mumkin. "G'oya muayyan maqsad sari safarbar etsa, mafkura bu maqsadni e'tiqodga aylantiradi. G'oyani amalga oshirish yo'lidagi safarbarlik jarayonida har xil muammolar, savollar paydo bo'lishi tabiiy. Ularning barchasiga javob topish jarayonida mafkura shakllanadi. G'oya hayotdagi hamma muammo va masalalarga javob bermasligi mumkin. Lekin mafkura hayotiy masalalarga o'z g'oyalar nuqtai nazaridani yondashadi va o'ziga xos javob beradi.<sup>4</sup>

"G'oya" va "mafkura" tushunchalari o'rtasidagi qayd etilgan farqlar ularni yonma-yon, bir xil mazmunda qo'llash o'rinli emasligini ko'rsatadi.

Shunday bo'lsada g'oyaning qisqa vaqt davomida shakllanishi haqidagi fikrlarning bahsli ekanligini mamlakatimizda kechgan jarayonlar ham tasdiqlaydi xususan, mustaqillikning dastlabki yillarida kommunistik mafkuradan qutilish maqsadida ideologizatsiya jarayoni olib borildi. Mazkur jarayon kishilar ongida bo'shliqning paydo bo'lishiga olib keldi. Bu bo'shlikning xavfi uni eski mafkura eski tuzumni yangilangan shaklda tanlash, diniy-eksremistik kuchlarning kishilar ongini egallashga urinishlar yaqqol namoyon bo'la boshladi.

Tabiiyki, bunday holatlarning oldini olish zarur edi.

Ana shunday vaziyatda Prezidentimiz tomonidan milliy xavfsizlikni ta'minlashda jamiyatni ma'naviy yetukligini ta'minlash, ijtimoiy mo'ljallar bilan qurollashtiradigan, kishilar kelajakka ishonch ruhida tarbiyalashga xizmat qiladigan milliy mafkurani shakllantirish kun tartibiga qo'yildi. "Oldimizda turgan eng muhim masala,-deb yozgan edi. I.A.Karimov, - bu –milliy istiqlol mafkurasini yaratish va hayotga tadbiq etishdir"<sup>5</sup>

---

<sup>4</sup> Муртазо Қаршибой. Янгиланишдан – буюк ўзгариш сари.-Т.: "Ғофур Ғулом нашриёти", 2001, 40 б.

<sup>5</sup> Каримов И.А. Буюк мақсад йўлидан оғишмайлик. // Ўзбекистон: Миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. 1-жилд.-Т.: "Ўзбекистон", 1996,-203 б.



Ana shundan so‘ng uzoq davom etgan bahsli mulohazalar, muxokamalardan so‘ng chuqur va tizimli asoslangan milliy istiqlol g‘oyasining yaxlit konsepsiyasi yaratildi.

“Millatning o‘tmishi, buguni va istiqbolini anglashni o‘zida mujassamlashtirgan, uning etnoijtimoiy birlik sifatidagi tub manfaatlari va maqsadlarini ifodalaydigan, taraqqiyotiga xizmat qiladigan g‘oyaga milliy g‘oya” deyiladi.

Milliy g‘oya har bir davrda aniq tarixiy mazmun kasb etadi.

Bugun milliy xavfsizlik va barqarorlikni ta‘minlashning ma‘naviy omili sifatida jamiyatning barcha qatlamlari, har bir a‘zosi uchun birday qadrli bo‘lgan milliy g‘oya va milliy mafkurasini izchil hayotga tadbiiq etish orqaligina erishish mumkin. Zero Prezidentimiz o‘rinli ta‘kidlaganlaridek, “Mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur. Mafkura bo‘lmasa odam, jamiyat, davlat o‘z yo‘lini yo‘qotishi muqarrar”<sup>6</sup>

Milliy istiqlol g‘oyasi o‘zligimizni anglash, birligimizni ta‘minlash, mustaqilligimizni mustahkamlashga xizmat qilishi lozim ekan, uni izchil hayotga tadbiiq etish zaruriyati bunga to‘sqinlik qilayotgan va tahdid solayotgan omillar oldini olish ehtiyoji bilan ham belgilanadi.

XX asrda ikkita jahon urushini boshdan kechirgan insoniyat so‘nggi yillarda turli sabablarga ko‘ra yuzaga kelayotgan va o‘z oqibatlariga ko‘ra jahon urushidan ham xalokatliroq bo‘lgan yangidan-yangi mojarolarga duch kelmoqda. Bunday mojarolar unga tortilgan davlatlar hayotini izdan chiqaribgina qolmay, qo‘shni xalqlar ruhiyati, turmushi, taraqqiyotiga ham jiddiy va sezilarli salbiy ta‘sir o‘tkazishi tabiiy, albatta.

XX asrning so‘nggi yillarida bunday mojarolar bilan bir qatorda diniy ekstremizm va fundamentalizmdek o‘ta xavfli qarashlar tizimi va faoliyat usuli ham tarix sahniga chiqqanini ta‘kidlash zarur.

Mamlakatimiz taraqqiyoti, kishilarimiz ongi va ruhiyatiga o‘zlarining tor

---

<sup>6</sup> Каримов И.А. Жамятимиз мафкураси халқни-халқ, миллатни-миллат қилишга хизмат этсин. //Каримов И.А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қурамыз 7-жилд. –Т.: “Ўзбекистон”, 1999, 84 б.

manfaatlaridan kelib chiqqan holda ta'sir ko'rsatishga harakat qiladigan kuchlar, diniy ekstremizm, agressiv millatchilik yoki buyuk davlatchilik shovinizmi shaklidagi g'oyalar mavjud bo'lgan vaziyatda "odam o'z mustaqil fikriga, tayanib yashaydigan hayotiy milliy qadriyatlarga, shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo'lmasa, har turli mafkuralarning bosimiga, ularning goh oshkora, goh pinhona ko'rinishdagi tazyiqlarga bardosh berishi amri mahol"<sup>7</sup>

Shunday ekan, ana shu xavf yo'lida qalqon bo'ladigan, istiqlolni mustahkamlashga qaratilgan, ertangi kunga ishonch hissini tarbiyalamog'i kerak bo'lgan bunyodkor g'oyalar kishilarimiz ongida ustuvor bo'lmog'i lozim. Zero, Prezidentimiz o'rinli ta'kidlaganlaridek "g'oyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan bahsga kirishish, olishish mumkin"<sup>8</sup>

Yuqoridagi mulohazalardan milliy g'oya kishilarimiz ongidan chuqur joy olgan, e'tiqod darajasiga ko'tarilgandagina o'zining o'lkan yaratuvchilik salohiyatini, harakatlantiruvchi kuchini namoyon qila oladi, degan xulosa kelib chiqadi.

Shuni nazarda tutib, I.A. Karimov "Mafkuraning hayotiligi uning xalq talabiga, turmush va tafakkur tarziga nechog'li mos bo'ltshi, eng muhimi, jamiyatning milliy manfaatlarini, orzu intilishlarini qay darajada aks ettirishi bilan o'lchanadi. Faqat shunday mafkuragina hayot va davr sinovlari sifatida qabul qiladi. Shundagina u zamonaviy quroldan ham ko'ra kuchli ruhiy-ma'naviy qudrat kasb etadi"-deb yozadi.<sup>9</sup>

Demak, g'oya faqat keng qamrovli mafkuraviy nazariya va amaliyotning uzviy qismiga aylangandagina jamiyat oldida turgan muammolarni yechimini topishga xizmat qiladi va milliy xavfsizlikni ta'minlashning asosi bo'la oladi.

---

<sup>7</sup> Каримов И.А. Жамиятимиз мафкураси халқни ҳ-халқ, миллатни миллат қилишга хизмат этсин. // Каримов И.А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. 7-жилд.-Т.: "Ўзбекистон", 1999,-86 б.

<sup>8</sup> Ўша асар. 88 б.

<sup>9</sup> Каримов И.А. Миллий истиқлол мафкураси халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир.//Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт пировард мақсадимиз. 8-жилд.-Т.: 2Ўзбекистон", 2000, 491 б.

## **1.2. Milliy g'oya, ma'naviyat tushunchasi hamda uning mazmun va mohiyati.**

Inson va jamiyat xayotida muxim o'zgarishlarni amalga oshirilishida muayyan g'oyalar alohida urin tutadi. Jamiyat taraqqiyoting ma'lum davrlarda tezlashuvi yoki sekinlashuvi, jamiyat xayotida ijobiy yoki salbiy xolatlarni ruy berishi jamiyatda qanday g'oyalar xukmronlik kilishi, ular qanday kuchlarni xarakatga keltirishi, kimlarning, ya'ni kaysi bir ijtimoiy katamlarning manfaatlariga xizmat kilishiga kup jixatdan boglikdir.

Ma'lumki inson o'zining orgii, aql-zakovati, iymon-e'tikodi va ijodiy mexnati bilan boshka barcha tirik jonzotlardan fark qiladi. Inson tafakkuri vokelikni idrok etish mobaynida turli fikrlar, karashlar, g'oyalar va ta'limotlar yaratadi. Demak, birinchidan, g'oya inson tafakkurining maxsulidir.

Ikkinchidan, g'oya oldin mavjud bo'lmagan, o'zida yangilikni tashuvchi fikrdir.

Uchinchidan, oldin g'oya paydo buladi, undan keyin g'oya asosida mafkura, mafkura asosida esa tizim, siyosat payodo buladi.

G'oyalar soglom va nosoglom, ezgu va yovo'z, bunyodkor yoki bo'zgunchi kurinishlarga ega bulishi mumkin.

Xarqanday g'oya ijtimoiy xarakterga ega. Muayyan g'oyalar, odatda, alohida olingan shaxs ongida shaqllanadi. Ma'lum bir muddatdan keyin esa jamiyatning turli katmlariga tarkaladi, turli elatlar va millatlar orasiga tarkaladi. Mustakil xayotga kadam kuyayotgan yangi avlod jamiyatda mavjud g'oyalar tasirida tarbiyalanadi. Muayyan karashlar va g'oyalarni o'z e'tikodiga singdiradi, o'z navbatida yangi g'oyalarni yaratadi va targib qiladi. G'oyaning eng muxim hususiyati-insonni va jamiyatni maqsad sari etaqlaydigan, ularni xarakatga keltiradigan safarbar etadigan kuch ekanidadir.

G'oya inson tafakkurining maxsuli sifatida g'oya milliy-ma'naviy merosni, umuminsoniy kadriyatlarni, ijtimoiy-ma'naviy xayotni, tevarak olamni urganish, bilish jarayonida vujudga keladi. Ijtimoiy ongning barcha shaqllari ilm-fan, falsafa, din, san'at va badiiy adabiyot, axlok, siyosat va xukuk-muayyan bir

g`oyalarni yaratadi, ularga tayanadi va ularni rivojlantiradi. Mazmuni va namoyon bulish shaqliga karab, g`oyalarni bir kancha turlarga ajratish mumkin:

1. Ilmiy g`oyalar. 2. Falsafiy g`oyalar. 3. Diniy g`oyalar. 4. Badiiy g`oyalar. 5. Ijtimoiy-siyosiy g`oyalar. Shundan g`oyalardan biri-milliy g`oyadir.

Milliy g`oya deb millatning utmishi, buguni va istiqlolini o`zida mujassamlashtirgan, uning tur manfaatleri va maqsadlarini ifodalab, tarakkiyotga xizmat qiladigan ijtimoiy g`oyalardan birining shaqliga aytiladi.

Milliy g`oya o`z mohiyatiga kura, xalk millat takdiriga daxldor bulgan, kiska yoki o`zok muddatda xal etilishi kerak bulgan vazifalar va muljallarni ham aks ettiradi.

O`z davrida (1941-1945yillarda) fashistlar bosib olgan Frantsiyada «qarshilik ko`rsatish g`oyasining milliy g`oya darajasiga kutarilgani va Frantsiyaning ozod etilishi bilan o`z ahamiyatini yukotgani fikrimizga dalil bulla oladi.

U yoki bu g`oyaning milliy g`oya sifatida maydonga chikishi millatning utmishi, mavjud xolati bilan bevosita boglikdir. Zero, anna shk ikki negizga tayangan xoldagina u millatning kiska yoki o`zok vaktida erishishi lozim bulgan maqsad muddaolari va muljallarini tugri ifodalay olishi mumkin.

Tom ma`nodagi milliy g`oya oxir-okibatda, ozmi kupmi insoniyat takdiriga ta`sir qiladi. Shu ma`noda, xar qanday milliy g`oyada umuminsoniy maxiyat mavjud buladi. Ammo, anik bir millat yoki umuman, insoniyat uchun ahamiyatli bulgan g`oyalar ham bor. Aytaylik, «Milliy yarash» g`oyasi fukarolar urushi ketayotgan davlat uchun xayotiy mazmunga ega bulsa, «Manfaatli hamkorlik» g`oyasi dunyoning barcha mamlakatlari uchun birdek ahamiyatlidir.

Xar bir xalk o`z tarixining burilish nuktalarida, avvalo mafkura masalasini, uning o`zagini tashkil etadigan, o`ziga xos UK, birlashtiruvchi yadro vazifasini utaydigan ijtimoiy g`oyani shaqlantirish muammosini xal qiladi.

Ma`lumki millatni orzu-umidlar, maqsad-muddaolari, manfaat va intilishlarini aks ettirgan fikr milliy g`oya deb ataladi.

I. A. Karimov «Milliy mustakil davlat bor ekan, uning mustakilligi va erkinligiga, an`ana va urf-odatlariga taxdid soladigan, uni o`z ta`siriga olish, uning

ustidan xukmronlik kilish, uning boyliklaridan o`z manfaati yo`lida foydalanishga karatilgan intilish va xarakatlar doimiy xabar sifatida saqlanib kolishi mukarrar» deb milliy g`oya, milliy istiqlol g`oyasining zarurligini kayd kilib utgan edi<sup>2</sup>.

Demak, milliy g`oyaning zarurligi, eng avvalo, mamlakatimiz mustakilligini mustaxkamlash uchun zarurdir. Uning zaruriati kuyidagi maqsadlarni amalga oshirish bilan boglik xolda namoyon buladi.

1. Oldimizga kuygan olijanob maqsad-muddaolarimizga, ya`ni ozod va obod Vatan, erkin va farovon xayot barpo etish uchun;

2. Eski mafkuraviy asoratlardan batamom xalos bulish uchun;

3. Mamlakatimizda g`oyaviy bushlikka, uning sodir bulishiga yul kuymaslik;

4. O`zok davrlar mobaynida odamlar ongida xukmron bulgan begona, yot g`oyalarning yanada kaytadan tiklanishiga yul kuymaslik uchun;

5. Xalkimiz tabiatiga zid bulgan o`zga g`oyalardan, ayniksa, yosh avlodni ximoya kilish uchun;

6. Xar qanday tajavo`zkor g`oyalarga qarshi tura oladigan, xar tomonlama barkamol avlodni voyaga etkazish zaruriatining mustakillikni mustaxkamlashdagi urnini anglash orkali xarakat dasturiga ega bulish uchun;

7. Mustakil davlatimizning xar bir fukarosiga Vatan takdiri uchun mas`ullik tuygusi bulishi uchun ham zarur.

Mustakillikni mustaxkamlashda milliy g`oyadan ko`zlangan maqsadlarning keng kamrovli ilmiy-nazariy va Amaliy yunalishlari Prezident I. A. Karimovning asarlarida, nutk va ma`ro`zalarida o`zining anik kontseptual ifodasini topgan.

Ayni paytda shu narsani ochik kayd kilish zarurki, mamlakatimiz uchun milliy g`oya xakidagi masalaning bugungi amaliy ahamiyati shundaki, biz bozor iktisodiyotiga asoslangan jamiyatga utish davrini boshdan kechirmokdamiz.

Aynan shunday paytda axolining turli katlamlari manfaatlarini ximoya kiluvchi mafkuralarning shaqllanishiga sharoit tugilishi mumkin. Shunday ekan, milliy, jamiyatni parokanda bo`lib ketishiga yul kuyib bulmaydi. Aks xolda, siyosiy,

---

2 Каримов И. А. Сўз боши 11 Миллий истиклол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. –Т.: «Ўзбекистон», 2000, 3-бет учун

xukukiy, iqtisodiy islohatlar o`z ahamiyatini yukotadi, mustakillik yo`lida gov paydo buladi. Ba`zi sobik ittifok respublikalari urnida paydo bulgan davlatlarda jamiyatni bir-biriga karama-qarshi turuvchi kuchlarga bulinib ketganligi (jumladan Ukraina, Gro`ziya, Kirgizistonda) yoki ayrim kushni mamlakatlarda maxalliychilik zaminida jamiyatni bo`lib yuborishga urinishlar ham katta sabok bo`lmog`i lozim. Manna shu xolatni umumlashtirib I. A. Karimov shunday degan edi: «Ishonchim komilki, bunday ta`sir mamlakatning ichki xayotida-ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jabxalarda o`z echimini topmagan masalalar yigilib, jamiyatda yuzaga kelishi mumkin. Tabiyki, xar qanday jamiyatda ham qandaydir norozilik mavjud buladi, ammo men narozilik kayfiyatlari avj nuktasiga chikkan, «bug kozonni yorib yuborishga kelib kolgan» vaziyatni nazarda tutayapman. Toki jamiyatning o`zi keskin o`zgarishlarga tayyor bulmasa, agar odamlarning sabr kosasi tulmasa, xech qanday Amerika, xech qanday evropa vokealarni o`zi xoxlagan o`zanga burib yuborishga kodir emas.

Shu sabli men O`zbekistonda Ukraina yoki Gro`ziya stsenariysi takrorlanishi mumkin, deb uylamayman.

Chunki mustakillik yillarida jamiyatimiz a`zolarining dunyokarashi, fikrlash tarzida teran o`zgarishlar yuz berdi, yuz bermokda. Anna shunday sharoitda xalkimizni birlashtiradigan, bunyodkorlik faoliyatiga safarbar etadigan, uning ezgu-maqсадlari va xayotiy manfaatlarini o`zida mujassam etadigan milliy g`oya va mafkurani yaratish ijtimoiy-siyosiy va ma`naviy tarakkiyotimizning muxim sharti hamda zaruratiga aylandi.

Mustakillikni mustaxkamlashda milliy g`oyaning zarurligi va uning ahamiyati ham ichki, ham tashki siyosatimiz istikbollari, samaradorligi bilan boglik. Shu nuktai nazardan milliy g`oyaning zarurligi jamiyatimizni tarakkiy topgan demokratik mamlakatlardagi kabi erkin va farovon xayot barpo etishi bilan ham boglik. Demak, milliy g`oyaning negizidagi muxim ustivor maqsad-mustakillikni bundan buyon ham asrab-avaylash, ximoya kili shva mustaxkamlash bo`lib kolaverar ekan, uning zarurligi xech bir davrda o`z ahamiyatini yukotmaydi.

Mustakillikni asrab-avaylash, ximoya kilishda milliy g`oyaning urnini boshka

biron bir omil bosolmaydi. Shu nuqtai nazardan davlat siyosatining ustivor yunalishlari, maqsad va vazifalarini ma'naviy jixatdan ta'minlash, bugungi kunda mamlakatimiz takdiri uchu nuta dolzarb masaladir. Buning erkin ifodasi I. A. Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining un turtinchi sessiyasi (2004 yil 29-aprel)dagi «Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o'z kuch-kudratimizga, xalkimizning hamjixatligi va bukulmas irodasinga bog'ligi»ligi xakidagi nutkida ham Oliy Majlisning mamlakatimiz fukarolariga murojaatnomasida bayon etdi.

Xususan, unda shunday deyilgan: «Butun bashariat o'ziga xos va ziddiyatli bir davrda yashamokda. Bir tomondan ilm-fan va texnika, yuksak texnologiyalar tarakkiy etib, insonparvarlik g'oyalari, demokratik kadriyatlar, o'zaro hamkorlik dune buylab karor topib bormokda. Ayni vaktida, er yuzining turli mintakalarida kurolli mojarolar ruy berayotgan, xalkaro terorizmning yangi-yangi xurujlari okibatida ming-minglab odamlarning xayotdan ko'z yumayotgani ham shu zamonning ochik xakikatidir».

Ma'naviyat falsafiy tushuncha sifatida Prezidentimiz faoliyatidan mustahkam o'rin oldi. Xalq va ma'naviyatning dialektik munosabati I.A.Karimov asarlarida yaqqol ko'zga tashlanadiki, ular haqiqatdan ham chambarchas bog'liq va o'zaro munosabatdadir. «Ma'naviyat... yo'q joyda hech qachon baxt-saodat bo'lmaydi. Nafaqat ko'hna tarix, balki, yangi tarix ham buning ko'plab misollarini biladi».<sup>3</sup>

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak «Ma'naviyat» so'ziga sobiq ittifoq davrida e'tibor qaratilmadi, nazardan chetda qoldirildi. Hatto, ilmiy-ommabop kitoblarda, so'zlik va lug'atlarda bu so'z umuman uchratilmadi.

«Ma'naviyat» so'zi arab tilidan olingan bo'lib, unda insonning ruhiy, aqliy jihatlari, o'z xususiyati, mohiyati, g'amxo'rliqi, qayg'urish, quvonish kabi jarayonlarni o'ziga mujassamlashtirgan. Hozirgi davrda ma'naviyat tushunchasining falsafiy mazmuni to'g'risida juda ko'p ta'riflar berilgan. Biz ularning ba'zilarini qiziquvchilarga havola qilamiz.

---

<sup>3</sup> I.A.Karimov. Ўзбекистон миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т.: «Ўзбекистон», 1996, 81-бет.

- “Ma’naviyat-insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir”<sup>1</sup>;
- “Ma’naviyat-insonning zot belgisi, uning faoliyatining ajralmas tarkibiy qismi, ongi, aql-zakovatining mahsuli”<sup>2</sup>;
- “Ma’naviyat-jamiyatning, millatning va yoki ayrim bir kishining ichki hayoti, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, idrokini mujassamlashtiruvchi tushuncha”<sup>3</sup>;
- “Ma’naviyat-inson axloqi va odobi, bilimlari, ist’edodi, qobiliyati, amaliy malakalari, vijdoni, iymoni, e’tiqodi, dunyoqarashi, mafkuraviy qarashlarining biri-biri bilan uzviy bog’langan, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta’sir etadigan mushtarak tizimdir”<sup>4</sup>.
- “Ma’naviyat-insonning ijtimoiy-madaniy mavjudot sifatidagi mohiyatidir, ya’ni insonning mehr-muruvvat, adolat, to’g’rilik, sofdillik, vijdon, or-nomus, vatanparvarlik, go’zallik, sevishtirish, zavqlanish, yovuzlikka nafrat, iroda, matonat va shu kabi ko’plab asl insoniy xislatlar va fazilatlarining uzviy birlik, mushtaraklik kasb etgan majmuasidir”<sup>5</sup>; “Ma’naviyat inson qalbida aks etgan ilohiy nur. Oliy haqiqat nuridir. SHu sababli inson ko’nglini “haqiqat asrorining ganjinasini”-
- “Ma’naviyat insonni hayvondan farqlab turadigan oliy qadriyat”<sup>7</sup>;
- Ko’rib turganimizdek, ma’naviyatga berilgan ta’riflar turlicha shaklda bo’lsa ham ularning barchasi inson faoliyatiga borib taqaladi. Inson faoliyatining turli tomonlarini baholaydi. Insonning ichki va tashqi xatti-harakati, go’zalligi, his-tuyg’ulari, kechinmalarini aks ettiradi. T. Mahmudov fikricha: “Ma’naviyat – insonning ma’lum darajadagi jismoniy, aqliy, axloqiy va ruhiy balog’ati va dunyoqarashini ifodalovchi tushunchadir”<sup>1</sup>. YOki boshqa manbalarda shunday ta’riflar bor: “Ma’naviyat – odamning ruhiy va aqliy olamining majmuidir” “Inson barcha tirik mavjudotning gulto’ji, hayot guli deyilganda uning yuksak ma’naviyat

<sup>1</sup> И.А.Каримов. Истиқлол ва маънавият. Т.: “Ўзбекистон”, 1994, 9-бет.

<sup>2</sup> Жалолов А. Мустақиллик маъсулияти. Т.: “Ўқитувчи”, 1996, 29-бет.

<sup>3</sup> Иброҳимов А, Султонов Х, Жўраев Н. Ватан туйғуси. Т.: “Ўзбекистон”, 1996, 111-бет.

<sup>4</sup> Юсупов Э. Инсон камолотининг маънавий асослари. Т.: “Университет”, 1998, 34-бет.

<sup>5</sup> Эркаев К. Маънавият – миллат нишони. Т.: “Маънавият”, 1997, 27-бет.

<sup>7</sup> Аъзамов Э. Юксак поғона. Маънавиятнинг ойдin йўли. Т.: “маънавият”, 1996, 32-бет.

<sup>1</sup> Т.Маҳмудов. Мустақиллик ва маънавият. Т.: 2001, 9-бет.



egasi ekanligi nazarda tutiladi. Ma'naviyat insoniylikka olib boradigan, insonni inson, millatni millat qiladigan ajoyib xislat va fazilatlarning yig'indisidir"<sup>2</sup>.

“Ma'naviyat insonning bilimi, tajribasi va mehnat malakasi, odob-axloqi, iymon va e'tiqodi, mafkuraviy qarashlarining yaxlit tizimidir”<sup>3</sup>. “Ma'naviy yetuklik shunday bir xazinaki, uni egallagan odam insoniy qadr-qimmatni hamma narsadan ustun qo'ya oladi, o'z manfaatini o'zgalar manfaati bilan qo'sha oladi, hayot-mamot masalalari hal bo'layotgan odamlarda aql-idrok doirasidan chiqmaydi”<sup>4</sup>. Bizningcha, ma'naviyat insonlarda yuqori darajada takomil topgan insonparvarlik xislatlarining yig'indisidir. Ta'riflardan ko'rinib turibdiki, ma'naviyat keng qirrali sermazmun va insondagi nozik tomonlarni qamrab olgan falsafiy tushunchadir. Ma'naviyat keng qamrovli bo'lganligi tufayli tor va keng ma'noda qo'llaniladi. Tor ma'noda ishlatilganda, uning alohida holati inson ko'z oldida gavdalansa, keng ma'noda esa inson ma'naviyatining keng, umumiy qirralari, unga amal qilish jarayonlari tushuniladi.

Ha, yuqoridagi ta'riflarda insoniy fazilatlarga e'tibor qaratilgan bo'lsada, Yurtboshimiz I.A.Karimov o'zining “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asarida bu so'zga keng va atroflicha ta'rif bergan: “Ma'naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir”

Ma'naviyat insonning qon-qoni, suyak-suyagiga yillar davomida ona suti, oila tarbiyasi, ajdodlar o'giti, Vatan tuyg'usi, bu hayotning ba'zida achchiq, ba'zida quvonchli saboqlari bilan qatra-qatra bo'lib singib boradi. Ayniqsa, tabiatga, odamlarga yaqinlik, doimo yaxshilikni o'ylab yashash, halol mehnat qilish, dunyoning tengsiz ne'mat va go'zalliklaridan bahramand bo'lish ma'naviyatga oziq beradi, uni yanada kuchaytiradi.

Jumladan, Prezidentimiz shunday yozadi: “Xalqimizning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish – O'zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim

---

<sup>2</sup> А.Эркаев. Эзгулик сари йўналтирилган ирода. “Тафаккур”, 1997 йил, 3-сон 14-бет.

<sup>3</sup> З.Ғофуров, С.Тошев. Маънавият тарбияси. Қарши “Насаф”, 1998, 11-бет.

<sup>4</sup> А.Эшонкулов. Маънавият тарбияси. “Мулоқот”, 1997 йил, 1-сон, 20-бет.

vazifasidir. Ma'naviyat shunday qimmatbaho mevaki, u bizning qadimiy va navqiron xalqimizning qalbida butun insoniyatning ulkan oilasida o'z mustaqilligini tushunib yetish va ozodlikni sevish tuyg'usi bilan yetilgan"<sup>1</sup>.

Islom Karimov o'z asarida mamlakatimizda milliy ma'naviyatni tiklash va rivojlantirish davlat siyosatida ustivor vazifa ekanligiga e'tiborni qaratib quyidagi konseptual g'oyani ilgari suradi. U shunday yozadi: "Oldin odamlarga moddiy boylik berish, so'ngra ma'naviyat to'g'risida o'ylash kerak deydiganlar haq bo'lmasa kerak. Ma'naviyat-insonning, xalqning, jamiyat, davlatning kuch-qudratidir. U yo'q joyda hech qachon baxt-saodat bo'lmaydi..."

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan bu konseptual g'oyaning nazariy va amaliy ahamiyati shundaki:

birinchida, bu bilan muallif sobiq sho'rolar davrida ma'naviyatni rivojlantirishga uchinchi darajali omil sifatida qaralishining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy inqirozining sabablarini ham ko'rsatib beradi.

ikkinchidan, ma'naviyatni rivojlantirmasdan, shaxsning ma'naviy-ruhiyatini o'zgartirmasdan turib jamiyatda ko'zlangan maqsadni amalga oshirish mumkin emasligiga asosiy e'tiborni qaratgan.

Prezidentimizning yana bir muhim konseptual g'oyasi ma'naviyat shaxsning eng muhim mezoni va shuning bilan birga uni kamolotga eltuvchi, o'z-o'zini anglatuvchi va o'z imkoniyatlarini yuzaga chiqartiruvchi ulkan omil ekanligini ilmiy asoslaganligidir.

Islom Karimovning milliy-ma'naviy tiklanishiga bag'ishlangan konsepsiyasida vatanparvarlikning shaxs ma'naviyatining ajralmas qismi ekanligini asoslab berish alohida o'rinni egallaydi. Haqiqatan ham o'z Vatanini sevmagan, uning har qarich yeri uchun mas'ulligini his etmagan har bir inson ma'naviy jihatdan qashshoq hisoblanadi.

Prezidentimizning ilgari surilgan konseptual g'oyalarni umumlashtiradigan bo'lsak, ular quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- ma'naviy meros va diniy qadriyatlarni chuqur o'zlashtirish, millatimizning

---

<sup>1</sup> O'sha asar78-bet.

o'z-o'zini anglashiga erishish, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini izchillik bilan mustahkamlash;

- mustaqillik sharoitida milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantirish hamda uni xalqimiz dunyoqarashiga aylanishiga erishish;

- ta'lim tizimini isloh qilish, kadrlar tayyorlashning milliy dasturini amalga oshirish asosida barkamol avlodni shakllantirish, sog'lom avlod dasturini amalga oshirish asosida jismonan baquvvat, ruhi, fikri sog'lom, iymon-e'tiqodi butun, bilimli, ma'naviyati yuksak, mard va jasur vatanparvar avlodimizni shakllantirishi;

- milliy – ma'naviy salohiyatimizning jahon sivilizatsiyasidagi o'rnini tiklash va bugungi kunda ma'naviyat, ma'rifat, fan, texnika, texnologiya yutuqlarini chuqur o'zlashtirish asosida hozirgi zamon umumjahon ma'naviyati tizimi rivojiga hissa qo'shish;

- yoshlar ma'naviyatini milliy istiqlol g'oyalari bilan boyitib borish, ular ongida mafkuraviy immunitetni kuchaytirish;

- insoniyatning asrlar davomida yaratgan va umumjahon mulkiga aylangan barcha boyliklarini milliy-ma'naviy salohiyatimizning ajralmas qismiga aylantirish kabilardir. Ma'ruzachi Prezidentimiz asrlarida ilgari surilgan ana shu konseptual g'oyalarni asarlar bo'yicha mukammal bayon qilib berishi zarur bo'ladi.

Ajdodlarimizdan qolgan meros har bir millatning nafaqat o'tmishi, shuning bilan birga istiqboli uchun ham kuch, fidoyilik va ilg'om manbai hisoblanadi. SHuning uchun ham Prezidentimiz "Hozirgi O'zbekiston deb ataluvchi hudud, ya'ni bizning Vatanimiz nafaqat Sharq, balki umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganligini butun jahon tan olmoqda. Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozilu-fuzolalar, olimu-ulomalar, siyosatchilar, sarkardalar yetishib chiqqan.

Dini va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan.

Ota-bobolarimizning asrlar davomida to'plagan hayotiy tajribalari, diniy, axloqiy, ilmiy qarashlarini o'zida mujassam etgan bu nodir qo'lyozmalarni jiddiy

o'rganish davri keldi"<sup>1</sup> – deb ta'kidlaydi. Uning “O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Inson uchun tarixdan judo bo'lish hayotdan judo bo'lish demakdir”<sup>2</sup> – degan g'oyalarida har bir vatandoshimizning, ayniqsa yoshlarimizning ma'naviy merosimizni chuqur o'rganish zarurligi milliy ma'naviy tiklanishimizning bosh vazifasi ekanligini tushunib yetishga qaratilgandir.

Islom Karimov milliy mafkuraning milliy ma'naviy tiklanish va mamlakatimizda demokratik jamiyat qurishdagi ahamiyati va rolini ilmiy asoslashga katta e'tibor qaratadi. Milliy mafkura-millatni birlashtiradi, mafkurasiz odam, jamiyat, davlat o'z yo'lini yo'qotadi.

Milliy mafkura vositasida el-yurt birlashadi o'z oldiga buyuk maqsadlar qo'yadi va ularni ado etishga qodir bo'ladi<sup>3</sup>” – deb ta'kidlaydi. Prezidentimiz o'z navbatida milliy g'oyaning vazifalarini aniq belgilab beradi: “...milliy g'oya birinchi navbatda yosh avlodimizni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash ularning qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini payvand qilishlik oliyjanob ishlarimizda madadkor bo'lishi zarur”<sup>1</sup> ligini belgilab beradi. Mamlakatimiz bugungi kunda totalitar tuzum hukmronligidan ozod bo'lib demokratik jamiyatni qurish sari dadil qadam tashlamoqda. Tabiiyki, jamiyat bir bosqichdan ikkinchisiga o'tish, yana boz ustiga zo'ravonlik asosida qurilgan jamiyatdan ma'rifatli inson manfaatlari, shaxs erkinligi va kamolotiga xizmat qiluvchi demokratik jamiyatga o'tish oson kechmaydi, chunki eski tuzum illatlari hali saqlanib turadi.

O'z umrini uzaytirish uchun jon jahdi bilan qarshilik ko'rsatadi, yangi jamiyat esa qisqa muhlatda qurilmaydi, balki ma'lum vaqtni, unda yashayotgan barcha insonlarning fidoyilik bilan mehnat qilishlarini talab etadi. Xuddi mana shu jarayonda yuzaga kelgan muammolarni hal qilish uchun yuksak ma'naviy e'tiqod va sabr-toqat bilan odamlarni uyushtirish, ular dunyoqarashida yangi jamiyat

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T.: “Sharq”, 1998, 3-4-betlar.

<sup>2</sup> O'sha asarda, 5, 10-betlar.

<sup>3</sup> I.Karimov. Jamiyatimizni mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. Toshkent, O'zbekiston, 1998, 4,2, 15-betlar.

<sup>1</sup> O'sha asar. 15-bet.

taffakkurini shakllantirish muhim vazifa darajasiga ko'tariladi.

Mamlakatimizda ana shu buyuk muammolarni hal etish jarayonlari ketmoqda. Ularni muvaffaqiyatli hal etishda ertangi kunimiz davomchilari bo'lgan yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishimiz zarur. Shuning uchun ham prezidentimiz og'ir iqtisodiy muammolarni hal etish jarayonlari murakkab holatda kechayotganliga qaramasdan kadrlar tayyorlash dasturini ishlab chiqish, uni qabul qilish va hayotga tadbiiq etish masalasini asosiy vazifasi sifatida belgilab berdi hamda uni amalga oshirishda rahbarlik qilmoqda. U Oliy Majlisning IX sessiyasidagi ma'ruzasida bu dasturning ahamiyatini shunday ta'kidladi: "Lo'nda qilib aytganda, bugungi kunda oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirilayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarali taqdiri – bularning barchasi, avvalambor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali ongli, mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liqligini barchamiz anglab yetmoqdamiz".<sup>2</sup>

Prezidentimizning milliy-ma'naviy tiklanishi amalga oshirishga xizmat qiluvchi yana bir konseptual g'oyasi sog'lom avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish zaruriyatini ilmiy asoslanganligidir. Uning sog'lom avlod konsepsiyasida shaxsning jismonan, ruhan baquvvat bo'lishi, yuksak bilim, ma'naviyat, tafakkur va fidoyi vatanparvar bo'lishi kabi talablarga javob beradigan avlodni nazarda tutiladi. SHuning uchun ham "... farzandlari sog'lom yurt qudratli bo'ladi, qudratli yurtning farzandlari sog'lom bo'ladi"<sup>1</sup> - degan g'oyani ilgari suradi.

Milliy – ma'naviy tiklanishimizda yoshlarimiz ma'naviyatini yuksak darajaga ko'tarish, ularning hozirgi zamon fan, texnika va texnologiya yutuqlarini chuqur o'zlashtirishlari katta omil ekanligi Prezidentimiz tomonidan ilmiy asoslangan.

Haqiqatdan ham jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribalari ko'rsatib turibdiki, qaysi mamlakat yoshlari zamonaviy fan, texnika va texnologiya yutuqlarini qanchalik mukammal egallasa, mamlakat taraqqiyotiga qo'shadigan

---

<sup>2</sup> Barkamol avlod orzusi. T.: "Sharq", 1999, 9-bet.

<sup>1</sup> Prezident I.A.Karimovning Konstitutsiya kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi: - Xalq so'zi, 1999 yil 8 dekabr.

hissalari shunchalik samarali bo'ladi, ma'naviyat yuksaladi va mamlakatning hozirgi zamon jahon sivilizatsiya tizimiga kirib borishi tezlashadi.

Prezidentimiz ishlab chiqqan milliy-ma'naviy tiklanish konsepsiyasida insoniyatning asrlar davomida yaratgan va umumjahon mulkiga aylangan barcha boyliklarini milliy ma'naviyatimizning ajralmas qismiga aylantirish ham asosiy o'rinni egallaydi.

Jumladan, u "Fidokor" gazetasi muxbiri bergan savollarga bergan javoblarida dunyo xalqlari ma'naviy mulkiga aylangan faylasuflarning asarlari haligacha o'zbek tilida yoshlarmizga yetib bormaganligini qattiq tanqid qilib shunday ta'kidlaydi: "Dunyo tan olgan ko'p ulug' faylasuflarning asarlari hanuzgacha o'zbek tilida nashr etilmagani tufayli aksariyat ziyolilar, xususan, yoshlarimiz ularning g'oyaviy qarashlari bilan yaxshi tanish emas Sokrat va Platon, Nitshe va Freyd kabi olimlarning hozirgi zamon chet el faylasuflarining kitoblarini ham tushunarli qilib, izoh va sharhlar bilan o'zbek tilida chop etish nahotki mumkin bo'lmasa?"<sup>1</sup>.

Yuqorida keltirilganlardan ko'rinib turibdiki Prezidentimiz milliy-ma'naviy rivojlanishimizni jahon xalqlarining ilg'or ma'naviyat tafakkuri taraqqiyoti bilan uyg'un ravishda rivojlantirish vazifasini kun tartibiga qo'yimoqda.

Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan milliy-ma'naviy tiklanishning ilmiy-nazariy konsepsiyasi juda katta amaliy ahamiyatga egadir. Bu mustaqillik yillarida ma'naviy taraqqiyotimizda qo'lga kiritilgan yutuqlar misolida o'z tasdig'ini topdi.

Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan milliy ma'naviy tiklanish va ma'naviy yangilanish konsepsiyasining juda katta nazariy va ma'naviy yangilanish konsepsiyasining juda katta nazariy va metodologik ahamiyatga ega ekanligini alohida ta'kidlash lozim. Fikrimizcha ularning ahamiyati quyidagilardan iborat:

Birinchidan, bu konsepsiya sobiq sho'rolarning totalitar tuzumi sharoitida boy milliy-ma'naviy madaniyatimizning inqirozga yuz tutganligini va uning sabablarini tushunishga;

ikkinchidan, sobiq sho'rolarning o'tkazgan zo'ravonligi, zulmi va

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi– xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. Toshkent: "O'zbekiston", 2000 yil, 34-35-betlar.

jinoyatkorona xatti-harakatlariga qaramasdan, milliy-ma'naviy merosimizning ildizlari mustahkam bo'lganligi uchun bu zo'ravonliklarga bardosh berib, o'z salohiyati va xususiyatlarini saqlab qololganligini tushunib yetishga, xuddi shuningdek, ana shu omil mustaqilligimiz sharoitida kuch, qudrat, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularimiz uchun manba bo'layotganligini tushunib yetishga;

uchinchidan, har bir millat, u son jihatdan kichikmi, yoki kattami undan qat'iy nazar mustaqillik ularning har biri uchun havo va suvdek zarur ekanligini, faqat mustaqillik millatni milliy-ma'naviyatini saqlab qolishga, uni rivojlantirishga va keyingi avlodga yetkazish baxtiga muyassar etadigan asosiy omil ekanligini tushunishga, bu esa har bir millatdoshimiz va vatandoshimizning mustaqillikdek ulug' ne'matni saqlab qolishi uchun fidoyilik ko'rsatishi ma'naviyatning yuksak belgisi ekanligini qalban his etishga imkon beradi;

to'rtinchida, milliy-ma'naviy tiklanishning mohiyatini, "ma'naviyat" tushunchasi, uning shaxs, millat kamoloti, davlat va jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini bilib olishga, uni rivojlantirish uchun marosimizni chuqur o'zlashtirish, tinmay izlanish, ma'rifat, fan, texnika va texnologiya yutuqlarini sabot bilan o'zlashtirish hamda Prezidentimizning bugungi taraqqiyotimizni ta'minlaydigan "kuch – bilim va tafakkurda" – degan ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan konseptual g'oyasiga izchillik bilan amal qilishimiz;

beshinchidan, milliy mustaqilligimizni mustahkamlash va islohotlarni amalga oshirish jarayonida milliy-ma'naviy tiklanishimiz oldida turgan vazifalar ko'lamini bilib olishga va uni amalga oshirishda umummilliy safarbarlik harakatini avj oldirishda fidoiylik ko'rsatish zarurligi;

oltinchidan, talaba yoshlarning milliy-ma'naviy tiklanish borasida ular oldida turgan vazifalarni bilib olishga, milliy g'urur, iftixor, fidoyilik, vatanparvarlik, insoniylik kabi oliyjanob fazilatlarni shakllantirish – mustaqilligimizni mustahkamlash va taraqqiyotimizning asosiy sharti ekanligini tushunib yetish;

ettinchidan, milliy istiqlol g'oyasining ma'no va mazmunini chuqur anglashimizga, mustaqillikni mustahkamlash jarayonida ma'naviy yangilanishimiz borasidagi strategik vazifalarimizning asosiy yo'nalishlarini va ko'lamini chuqur

bilib olishimiz hamda ularni amalga oshirishda fidoiylik ko'rsatishimizning ahamiyatini tushunib yetishimiz zarurligi kabilardir.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, prezidentimiz tomonidan ishlab chiqarilgan milliy ma'naviy tiklanish ilmiy-nazariy konsepsiyasi juda katta nazariy, metodologik va amaliy ahamiyatga egadir. Bu konsepsiya kelajakda masalani yana ham chuqurroq o'rganishimiz uchun asos bo'ladi.

### **1.3. Milliy xavfsizlikni ta'minlashda milliy g'oyaning o'rni va ahamiyati.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "Turkiston" gazetasi muxbirining savollariga bergan javoblarida shunday degan edi: "... Shu o'rinda mustaqillik va istiqloq yo'lida birinchi qadam qo'yayotgan davrda yagona oila bo'lib yashayotgan ko'pmillatli halqimizning dolzarb shoiriga aylangan so'zlarni eslatmoqchiman." "Shu aziz Vatan barchamizniki, uning farovon kelajagi va iqboli uchun yashash, kurashish biz uchun eng katta baxtdir".

Ishonchim komilki, barqarorlik, tinchlik, millatlararo totuvlikka chorlayotgan bunday shior milliy g'oyamiz va tafakkurimizning asosiy mezoniga aylanib qolsa, nafaqat bugungi, balki kelajak avlodlarimizni ham asraydigan, ezgu orzularimizni ro'yobga chiqaradigan asos bo'lib xizmat qilar edi.<sup>10</sup>

Tarix saboqlaridan xulosa chiqarish vaqti ham keldi. Moddiy qiyinchiliklar og'ir sinov bo'lsada, uni mehnat va sabr-toqat bilan yengish mumkin, albatta. Bu g'oya har bir ota-ona, o'qituvchi, murabbiy, mahalla oqsoqoli va faoli qalbida so'nmas mash'al kabi yonib, yosh avlod uchun aniq va tushunarli bo'lishi kerak va faqat shundagina tinchlik va barqarorlik, ezgu maqsadlar va buyuk kelajakka erishish mumkin bo'ladi.

Yana bir narsani alohida takidlash zarur. Yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga nisbatan rasmiyatchilik bu ishning umuman olib brilmaganidan zararlidir. G'oyaviy bo'shliq bo'lmasligini, kishilar, ayniqsa, yoshlar ongiga o'z xalqining qoni evaziga siyosiy shuxrat qozonishda, boylik orttirishdan ham toymaydigan firqachilik, diniy

---

<sup>10</sup> Каримов И.А Биз келажакимизни ўз кўлимиз билан кураимиз. 7-жилд, Т.: "Ўзбекистон", 1999 й. 302 б.



murosasizlik, millatchilik, separatizm, fashizm, mahalliychilik, jinoiy sheriklik kabi “g‘oya va g‘oyacha” lar bilan tezda ta’sir qilishiga aslo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Ular o‘zlarining bu manfur niyatlarini qanday amalga oshirishini hammamiz 1999 yil 16 fevralda ko‘rdik. 90-yillardagi mafkuraviy bo‘shliq muhitida tarbiyalangan yoshlarning ayrimlari milliy mustaqilligimiz manfaatlariga zid ish qiluvchilar guruhiga qo‘shilib ketishdi. Bunday fojealarning qaytarilmasligi uchun hammamiz bor imkoniyatlarimizdan foydalanishimiz, qo‘ldan kelgancha harakat qilishimiz va hamisha ogoh bo‘lib yashashimiz lozim.

Yangicha tafakkur tizimidagi evalyutsion usul asosida milliy mafkura va uning o‘zagi bo‘lgan milliy g‘oya yotadi. Shuni eslatib o‘tish lozimki, milliy g‘oya - bu, faqatgina o‘zbek millatinigina birlashishga chaqiruvchi mavhum shior deb qaramasdan, balki uni yanada kengroq ko‘lamda, butun O‘zbekiston aholisini qamrab oluvchi, barchani jipslashtiruvchi determinant sifatida olib qarash lozim. Biz bu o‘rinda millatidan qat’iy nazar butun O‘zbekiston xalqini va ularning xar birini shaxsiy, butun jamiyat va davlat miqyosidagi manfaatlarini nazarda tutmoqdamiz. Bu joyda fikrlarimiz, ziddiyatlimi? yo‘q, albatta gap shundaki mafkura sohasida ro‘y berayotgan jarayonlarni xaligacha qutbiy qarama-qarshi baxolashga duch kelamiz. Ayrimlar milliy va madaniy tiklanish xaqida gapirishadi. Boshqalar esa milliy va madaniy inqiroz xaqida gapirishadi.

Ilgari mavjud bo‘lgan qudratli xukumron tafakkur iskanjasidan qutilgach, milliy tafakkurimizning xalqning ongi, kayfiyati, ruhiyati, mintaliteti, umuminsoniy va milliy qadriyatlarini hisobga olgan xolda shakllanishi haqida so‘z yurita boshladik. Milliy xavfsizlikning mustaxkam mudofaasi va muxofazasi ta’minlanganligi mamlakat ichki barqarorligining muhim tayanchidir. Bunday tayanch Respublikamizning iqtisodiy, moliyaviy, siyosiy tizimlarida ham barqarorlikni ta’minlay oladi. Bu esa o‘z navbatida mamlakatimizga chet el investitsiyasining kirib kelishiga, iqtisodimizning jaxon andozalari talablari darajasida rivojlanishiga keng imkoniyat ochadi.

Endi davlatimizning ichki xavfsizlagi xususida to‘xtalib o‘taylik. Afsuski, jamiyatimizning osoyishtaligiga muayyan darajada halaqit berishi mumkin bo‘lgan

kuchlar qatoriga turli xil ekstremistik kayfiyatdagi oqimlarini ham kiritish mumkin.

Avvalo, ekstremizmga ta'rif beraylik.

Ekstrmizm-lotincha EXSTREMUS, ya'ni o'ta bir yoqlama degan so'zdan kelib chiqqan bo'lib, muayyan siyosiy nuqtai nazarga o'ta bir yoqlama qarash oqibatidagi xatti-xarakatlarni ifodalaydi. Respublikamizda ekstremistik harakatlar asosan bugungi kunda diniy ekstremizm ko'rinishida nomoyon bo'lmoqda.

Bundan tashqari bugungi kunda milliy xavfsizlikka raxna soluvchi taxdidlar:

- mintaqaviy mo'roralar
- buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik
- etnik va millatlararo ziddiyatlar
- karrupsiya va jinoyatchilik
- mahalliychilik va urug' aymog'chilik munosabatlari
- ekologik muammolar

Ushbu taxdidlarga barham berishning eng asosiy va eng maqbul yo'li milliy g'oyani o'rni va ahamiyati beqiyosdir.

Ma'lumki, fikr asosida g'oya, g'oya asosida esa mafkura shakllanadi. Ya'ni, inson muayyan maqsadni mo'ljallab, uni amalga oshirishga qat'iy axd qilsa, bu g'oya hisoblanadi. G'oya konkret inson, guruh, millat yoki jamiyatning hayotiy ehtiyojlaridan kelib chiqib, manfaatlarini ifodalab, ularning ishonch e'tiqodi va faoliyatiga asos bo'lsa, mafkuraga aylanadi. Mafkura turli guruh, toifa va qatlamlardagi kishilarning manfaatlarini ifodalab, ijtimoiy hayoti va faoliyatini tartibga solib, harakatga keltiradi, g'oyalarning ro'yobga chiqishiga xizmat qiladi. Shuning uchun g'oya maqsad bo'lsa, mafkura uni amalga oshirish usuli vositasidir. Boshqacha aytganda, inson yoki millatning asosiy maqsadlari g'oyalarda namoyon bo'lsa, uni ro'yobga chiqarishga qaratilgan ishlarning mazmun-mohiyati mafkurani tashkil qiladi. Misol uchun, biror uy-joy qurilishi jarayonini olaylik. Uy-joy har bir inson uchun hayotiy zarurat, muhim ehtiyoj, manfaatdir. Shundan kelib chiqib, kishilar o'z didi va imkoniyatlariga mos makon qilishni orzu qiladi. Fikran rejalar tuzib, uni amalga oshirish haqida o'ylaydi.

Xullas, uyni qurish jarayoni dastlab fikrda amalga oshadi, tasavvur qilinadi.

Bunda uyning o'zi, uning qanday qurilishiga doir masalalar, real imkoniyat va shart-sharoitlar bilan bog'liq ishlarning har biri fikran hisob-kitob qilinib, rejalanadi. Shu tariqa uy to'g'risidagi fikrlar pishib, konkretlashib aniq maqsadga - yaxlit g'oyaga aylanadi. Ayni paytda, uy haqidagi g'oya va undan manfaatdor kishilarning xohishi, ishonchi va imkoniyatlariga muvofiq amalga oshirishga qaratilgan ishlar xususidagi teran fikrlar, ya'ni uy qurilishining ob'ektiv va sub'ektiv omillari; bajariladigan ishlar, zarur mablag'-materiallar, ularni topish va ishlatish kabi masalalarning aniq yechimlarini ifodalovchi g'oyalar tizimi - mafkura paydo bo'ladi.

Ayni shu tizim (mafkura), undagi manfaatlashgan g'oyalar asosida xatti-harakatlar bosh g'oyaning royobga chiqishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu ma'noda mafkurani qurilayotgan ob'ektning loyixa smeta hujjatiga qiyoslash mumkin. Ob'ektni belgilangan tartibda qurish uchun quruvchilar shu hujjatni yaxshi bilishlari taqozo etiladi.

Shunday qilib, bu o'rinda uyning tasavvurdagi tugal shakli - bosh g'oya, uning mazmuni va qiyofasini belgilab, tavsiflovchi g'oyalarni asosiy g'oyalar, ushbu bosh va asosiy g'oyalar bilan birga qurilish jarayonidagi ish-harakatlar, usullar mazmunini ifodalovchi g'oyalar tizimini mafkura deyish mumkin.

Milliy g'oya va mafkurani shu nuqtai nazardan tavsiflasak, uning davlatimiz va jamiyatimiz qurilishiga doir nazariy-metodologik mazmuni oydinlashadi. Chunonchi, uy g'oyasini milliy mafkuraning bosh g'oyasi Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish desak, uyning qandayligini, uning ichki va tashqi shakl-shamoyilini aniq-ravshan ifodalagan g'oyalarni mafkuramizdagi Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalk, farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik kabi asosiy g'oyalar tashkil qiladi.

Bu holda ana shu bosh va asosiy g'oyalarda ifodalanayotgan manfaat - maqsadlar hamda ularni ro'yobga chiqarish uchun jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida: ham individual va ijtimoiy, ham mikro va makro darajalarda amalga oshirilayotgan nazariy va amaliy ishlarning mazmun-mohiyati, ahamiyati va ko'lami; yo'nalishlari, bosqichlari va usullari; bu jarayonlarning istiqbollari, shuningdek, qurilayotgan jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar xarakteri, ularning

kelgusi taraqqiyot bosqichlari, lo‘nda qilib aytganda, O‘zbekistonda huquqiy demokratik davlat, adolatli fuqarolik jamiyatining shakllanib, rivojlanish qonuniyatlari to‘g‘risidagi g‘oyalar, nazariya va tasavvurlar tizimi milliy mafkurada namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, bu ma’noda g‘oyani - nazariya, mafkurani metodologiya deyish mumkin. G‘oya nisbatan turg‘un, qat’iy, mafkura esa dinamik xarakterga ega. Chunki, mafkura inson va jamiyat hayotidagi ob’ektiv va sub’ektiv shart-sharoitlarga mos holda, kishilarning talab, ehtiyoj, ishonch e’tiqod, manfaat va maqsadlariga muvofiq tarzda, retrospektiv asoslarda o‘zgarib, rivojlanib boradi. Prezidentimiz Islom Karimov aytganidek: «Xalq, millat o‘z milliy mafkurasini butun umri davomida takomillashtirib, boyitib boradi. Chunki, mafkura qotib qolgan aqidalar yig‘indisi emas. Bu - uzluksiz jarayon bo‘lib, hayot davom etar ekan, uning shiddatli jurati tufayli mafkuraning oldiga qo‘yiladigan yangi-yangi talablar ham paydo bo‘ladi».<sup>11</sup>

Shuni alohida qayd qilish kerakki, mafkura, undagi g‘oyalarning manfaatlashish xususiyati bilan, ya’ni g‘oyadagi shu g‘oya egasi yoki unga ergashgan konkret shaxs, guruh, millatning tub ehtiyoj - manfaatlari va ishonch-etiqodlari ifodalangan tugal mazmun bilan xarakterlanadi. Demak, mafkura - g‘oyaning manfaatlashgan mazmuni, shakli, qismi, tomoni, ko‘rinishi, qiyofasi va xarakteridir. Ayni paytda, mafkuraning amal qilishida odamlarning undagi g‘oyalarga bo‘lgan ishonch-e’tiqodi muhim o‘rin tutadi. Bu holda mafkurani tavsiflovchi asosiy omillar: a) kishilarning talab, ehtiyoj-manfaatlari va ularni qondirish usul vosita, mexanizmlari; b) g‘oyalarga bo‘lgan ishonch-e’tiqodning namoyon bo‘lishidir;

G‘oya o‘z sub’ektining ishonch-e’tiqodi, manfaat-ehtiyoji va maqsadlarini qanchalik to‘liq, aniq, mukammal ifodalasa, uning asosida hosil bo‘lgan mafkura shunchalik kuchli, hayotiy bo‘ladi. Demak, g‘oyani yaxshi bilish, uning mazmun-mohiyati to‘g‘risida mukammal bilim-tasavvurga ega bo‘lish insonning g‘oyaviy -

---

<sup>11</sup> Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон хаёт пировард мақсадимиз. 8-жилд.- Т.: “Ўзбекистон”, 2000, 500-501 бетлар.

mafkuraviy saviyasini oshirib, ma'naviy-ma'rifiy darajasini yuksaltiradi. Bu saviya qanchalik kuchli bo'lsa, daraja shu darajada baland bo'ladi. Bilim, unga qo'yiladigan bahoda aks etganidek, g'oyaviy-mafkuraviy saviya inson va jamiyat xayotining ma'naviy-ma'rifiy darajasi qanday ekanini ko'rsatadi. Binobarin, yurtdoshlarimizning milliy g'oyamizni o'rganib, o'zlashtirishi natijasida shakllanadigan g'oyaviy-mafkuraviy bilim saviyasi, ya'ni milliy mafkura - davlatning demokratik xarakteri va jamiyatimizdagi ma'naviy ma'rifiy taraqqiyot darajasining muhim ko'rsatkichi va o'lchov mezonidir.

## **II-bob. Milliy goyaning ma`naviy yangilanishdagi urni va xizmati.**

### **2.1.Jamiyatni ma`naviy yangilash g`oyasining mohiyati**

Milliy o`zlikni anglash tushunchasining mohiyati haqida so`z ketganda, kommunistik mafkura milliy ravnaqni targ`ib qilmasdan, uni mavhum qilib umumiy tushunchalar bilan xalq ong`ini toraytirib qo`ydi. To`g`ri, o`sha mafkuraning dasturlarida ham «Vatan», «davlat», «mamlakat», «madaniyat» tushunchalari bo`lgan, ammo ularning mohiyati va mazmuni mahalliy xalk; uchun xizmat qilmagan. Aksincha, mahalliy xalqni inqirozga yo`liqtirgan. O`z vaqtida Munavvar qori Abdurashidxonov «millat, vatan, madaniyat.» shunga o`xshash so`zlarning haqiqiy ma`nosini bol`sheviklar boshqacha tushunganlarini, bu so`zlar orqali o`zlarining qabih niyatlarini amalga oshirayotganlarini ochib tashlagan edi. Sababi, milliy o`z-o`zini anglashda ko`pgina to`siqlar hali oktyabr` inqilobi davridayok; boshlangan edi. Ma`lumki, xalqning o`z-o`zini anglashida til, madaniyat, din, hudud birligi bo`lishi lozim. Jadidchilik harakatining namoyandalaridan biri I.G`aspiralining ta`kidicha, millatning o`zligini yo`qotish uchun shulardan bittasining buzilishi kifoya edi. Kommunistik mafkura haqiqatda xalqimizni o`z tilidan, dinidan o`z o`tmishidan, madaniyatidan mahrum qilishga olib keldi. Shu sababli, endilikda shunday payt keldiki, biz o`zimizning o`tmishimiz va ajdodlarimizning faoliyati bilan yaqindan tanishib, kimlarmiz va qaysi yurt vorislari ekanligimizni nafaqat bilishimiz, balki, ularni dunyo miqyosida targ`ib qilishimiz lozim. Bu sohada jadidchilik harakatining yirik namoyondasi I. G`aspirali aytgan mazmunli fikrlar aynan o`zbek xalqiga ham taalluqlidir. U kishi jon kuydirib ushbu fikrlarni o`rtaga tashlagan edi: «Biz, turklar o`z qonunlari va turmush odatlari ila bir ko`b saltanatlar maydonga keltirgan qavm o`laroq yashab keldik va shunday yashajakmiz...

Biz-turkiy xalqlar qadim-qadimdan Marmar dengizidan Xitoy devorigacha yoyilgan yirik bir tarixiy-etnografik birlik o`larov; yashab keldik va xuddi shunda yashamog`imiz kerak.

Biz o`z tarixining dastlabki davridayok; yozuviga (O`rxun va uyg`ur yozuvlari) ega bo`lgan, keyin ham uni ilm va tafakkurdagi ulkan muvaffaqiyatlari bilan

bezagan qabila sifatida yashab keldik va shunday yashayajakmiz.

Agar biz muayyan tarixiy sharoitlar tufayli boshqa xalqlardan orqada qolgan ekanmiz, bu hali milliy-madaniy inqilob huquqidan mahrum etmaydi, aksincha, u tomon yanada kattarok; g`ayrat bilan intilishga majbur etadi. Buni bizdan xalqimizning tarixi, tavdiri talab etadi. Ulug` vazifalar va ulut intilishlardan qo`rqmang Ular ulug` voqealarni tayyorlaydi va ulug` shaxslarni etkazadi.

Shuncha shaharlar bunyod etgan, fan va madaniyatning dohiylarini, xarbu zarbning olamjahon vallomatlarini dunyoga bergan bu millat nahotki suvga tushgan toshdek zim-ziyo ketsa?».

Bu fikrlar har qanday kishini hayajonga solmay qolmaydi.

Xo`sh, shunday ekan o`z-o`zini anglash, deganda nimani tushunish kerak? degan savol tug`iladi.

O`z-o`zini anglash - bu o`z Vatani va shu Vatanda yashag`an xalqning, millatning o`tmishi, uning madaniyati, urf-odati, hamda qadriyatlarini bilishi demakdir.

O`z-o`zini anglash bu - o`z xalqining azaldan jahon hamjamiyati taraqqiyotiga qo`shgan hissasini ang`lashdir.

O`z-o`zini anglash bu-o`tgan ajdodlar tarixini mukammal bilish, ularning ruhlari hurmatini o`rniga qo`yish demakdir. Shu bilan birga o`z-o`zini anglash Vatan hududidagi boy madaniy va moddiy merosni aniqlab, porloq kelajak uchun xizmat qilishga intilish, avlodlar farovonligi uchun o`z hissasini qo`shish hamdir. O`z-o`zini anglash faqat o`z tarixini bilish bilan cheklanib k;olish degan so`z emas, O`zining zamonaviy imkoniyatlarini hisobga olgan holda o`z millati va Vatanining shuhratini oshirish hamdir.

Ma`lumki, xalqimiz uzoq o`tmishga ega. U o`z tarixida ko`pgina qiyinchiliklar, bosqinchiliklarga duchor bo`lgani bilan, shunday boy tarixiy meros qoldirganki, ularni anglash beixtiyor milliy g`ururni shakllantiradi.

O`rta Osiyoning markazi bo`lmish O`zbekiston dunyo tarixida o`chmas iz qoldirib kelayotir. Buni jahon xalqlari e`tirof etadi. Masalan, O`zbekiston qadim zamonlardayok; «Buyuk Ipak yo`li» orqali G`arb va Sharqni borlash uchun xizmat

qilgan. U dunyo davlatchiligini rivojlantirishga, jahon madaniyatini ko`tarishga o`z hissasini qo`shgan. Shu sababli ham, bu yurtidan mag`rurlansak arziydi. O`zbekiston hududida qadimdan ko`p elat va millatlar yashagan bo`lsa-da, ular o`rtasidagi do`stlik, totuvlik, barqarorlik insonlarni hayratda qoldirib kelgan. Demak, tarixai birlikni, ztnoslar mavjudligi, ularni qon-qarindoshligi bilan, ulardagi til, ona zaminning ma`naviy jihatlari yaqinligini, ulardagi muqaddas tuproq, Vatanga bo`lgan mehr-muhabbatni anglash hozirgi avlod uchun ayniqsa dolzarbdir.

Gohidaonda-sonda dunyoda bo`lib turgan kelishmovchiliklar, ziddiyatlarning oldini olishga bizning yurtimiz ma`naviy qurol bo`lib xizmat k;iladi.

Hozirgi zamonda o`z-o`zini anglash bu - shaxsiy va mahalliychilik, urut-aymoqchilik illatlarini yo`qotishga yordam beradi. Azaldan bir tan, bir jon bo`lib yashab, shu mamlakat ravnaqini ta`minlagan ajdodlarimizning turmush tarzi hozir ham yorqin misol bo`lib, hamkorlik qilishning manbai bo`lib xizmat qiladi.

Milliy o`z-o`zlikni anglash natijasida o`z mamlakati taraqqiyotini belgilash, uning mustaqilligi uchun kurashning namunasini beradi. O`z-o`zini anglash kelajakda o`z taqdirini o`zi belgilash uchun foydalaniladi, mas`uliyatni oshiradi. Ajdodlar fidoiyligi, jonkuyarligidan xulosalar ilinadi. O`z-o`zini anglash shunday bir noyob jarayonki, uning mohiyatiga etish insonda bitmas-tuganmas mehr-muhabbat, shafqat, umumiy insonparvarlikni shakllantiradi. Insonlarda milliy anglash bo`lmasa, milliy manfaatlarni tushunish diyin. Qachonki, milliy anglash yuksak bo`lgandagina kerakli vaqtda, ya`ni o`z millatining qadr-qimmatini pasaytirayotgan hodisa va harakatlar bo`lsa, uning ma`naviy va moddiy boyligiga zarar keltirsa, g`ururi poymol etilaversa, o`shanda birlashish, himoya qilish namoyon

bo`ladi. Shunday paytlarda mamlakat ichkarisidagi muxolifatlar ham yagona maqsad yo`lida birlashadilar.

Millatning o`z-o`zini anglashi, uning his-tuyg`ulari, irodalari, ruhlari, kayfiyatlarini o`zgartiradi. Turmush tarziga ta`sir qiladi. Ta`kidlab o`tish kerakki, o`z-o`zini anglash faqat o`z millatining manfaatini himoya qilish bilan chegaralanmaydi. Balki, millat va mamlakat taraqqiyoti uning rivojlanishiga ham



ijobiy ta'sir etadi, mamlakatga, Vatanga oid turli voqealarni, ichki va tashqi jarayonlarni to'g'ri baholaydi, uning muammolarini hal etadi, ichki ma'naviy va moddiy zahiralarni ishga soladi, jamiyatning olg'a qarab siljishiga yordam beradi. Ana shu ma'noda, millatning o'z-o'zini anglashi millat uchun muhim belgi bo'lib, u milliy g'ururda kengroq o'z ifodasini topadi.

Davlat mustaqilligini mustahkamlash mamlakatda yashaydigan barcha aholi tabaqalari, ijtimoiy guruhlar, elat va millatlar o'rtasidagi munosabatlarning qandayligiga ham ko'p jihatdan bog'liqdir. Hozir Respublikamizda 80 dan ortik milliy, madaniy markazlar ishlab turibdi. Ular o'rtasida hamkorlik, millatlar o'rtasida totuvlik bo'lmas ekan, davlat mustaqilligiga to'la erishish mushkul bo'ladi.

Ayniqsa, ko'p millatli davlatda bu jarayon muhimdir. O'zbekistonimizda 30-yillarda ellikdan ortiq millat va elat vakillari yashagan bo'lsa, endilikda ular 130 dan ortiqdir. Demak, bu hol davlatimiz mustadilligini mustahkamlash uchun yangi vazifalarni keltirib chiqaradiki, ularni juda ehtiyotkorlik va vazminlik bilan bajarishga intilish talab etiladi.

Sababi, yuqorida aytib o'tilgan toifalarning barchasi mamlakat mustaqilligi uchun u yoki bu darajada sa'y-harakatlar qiladilar, mamlakatni moddiy va ma'naviy boyitadilar. Zero, mustaqillikni mustahkamlashga harakat qilayotgan fuharolarni, ayniqsa, yoshlarni ma'naviy etuk qilib tarbiyalash kechiktirib bo'lmaydigan vazifadir. Shu sababli, taraqqiyotdagi boshqa yo'nalishlar bilan birga xalq manfaatini ifodalaydigan, ma'naviyatini boyitadigan milliy istiqloq mafkurasining yaratilishi zamon talabidir.

Milliy istiqloq mafkurasini endilikda hayotga tatbiq etilayotir. Bu mafkura va uning mazmuni to'g'risida matbuotda iliq so'zlar aytilayotganining guvohimiz. Shu sababli, biz mafkurada tilga olingan va ma'naviyatimizning eng muhim qirralaridan biri bo'lgan milliy g'ururni shakllantirishdagi omillar, uning iqtisodiy va ma'naviy jihatlari to'g'risida fikr yuritmoqchimiz.

Prezident I.A.Karimov "O'zbekiston o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li" nomli asarida: "O'zbek xalqining yuksak milliy qadr-qimmatini, or-nomusini va shon-sharafi,

uining o`ta mehribonligi va sof vijdonliligiga asoslangandir. Biz bundan keyin ham o`zbeklarning milliy g`ururini ma`naviy yuksaltiramiz, shu bilan birga umumiy Vatanimizda biz bilan birga yashovchi va O`zbekiston respublikasiga sadoqatli bo`lgan barcha xalqlar bilan birodarlikka intilamiz", deb ta`kidlagan edi. Bu so`zlarda juda nuqur ma`no bor. Sobiq ittifoq davrida "dunyoviy millat", "dunyoviy til", "dunyoviy madaniyat" kabi umumjahon maqsadlar asosida fikr yuritilganligi sababli milliy g`urur chetga chiqib qolavergan edi. Natijada, "yirik" millatlar soyasida boshqa millatlar g`ururi ravnaq topmadi. Chunki, mehnatkash xalq ongiga kundalik hayotimizdan uzoh fikrlar singdirilib kelindiki, bu jarayonda boshqa ba`zi xalqlar singari o`zbek xalqining ham milliy g`ururi toptaldi, qiyinchiliklarga duch keldi. Endilikda xalqimiz mustaqillik sharofati bilan, o`n yildirki, bu muhim jabhada kaddini rostlamoqda.

Milliy g`urur to`g`risida so`z ketar ekan, bu masalaning nozikligini hech qachon unutmashlik zarur. U hasad bilan emas, balki, havas bilan yuksalmog`i kerak. G`urur to`g`risida turlicha fikr yuritgan allomalar uning salbiy va ijobiy tomonlarini taroziga solib ish yuritishni uqtirganlar. Jumladan, ingliz tanqidchisi J. Kollinz milliy g`urur "Garchi yaxshilik hisoblanmasa-da, lekin ko`p yaxshiliklarning boshidir", -degan bo`lsa, nemis yozuvchisi I.Zeyme :-"Agar biz haqiqiy g`ururli bo`lganimizda edi, dunyoni bu qadar razilliklar bosmas edi"-deb yozadi. Yunon faylasufi Teofrast:-"G`urur-o`zidan boshqalarning bariga nisbatan o`ziga xos bir nafratdir"-deydi. Frantsuz adibi M.Janlis:-"G`urur ko`pincha haqiqiy ulug`vorlikka g`ov bo`ladi",-Degan bo`lsa, at-Termiziy:-"Mag`urning turishi xunuk"-deydilar.

Bu kabi fikrlardan ko`rinib turibdiki, g`urur yuqorida ta`kidlanganidek, noyob va nozik jarayondir. Milliy mafkuraning har bir targ`ibotchisi va tinglovchisi mazkur fikrlardan tegishli xulosa chiqarib, masalaga jiddiy yondashishi va uni hayotga tatbik; etishi kerak. Xususan, frantsuz axloqshunos olimi F.Laroshfukoning:-"G`urur barchaga xos xususiyat: ammo farqi shundaki, uni qachon va qaerda ko`rsatishni bilish kerak"<sup>3</sup>, -degan da`vatiga amal qilinsa, mantiqqa to`g`ri kelar edi.

Xalqimizning "G`ururi bor elning minorasi baland bo`ladi" degan ajoyib

naqlidan kelib chiqsak, boshqa muhim jarayonlar singari milliy g`ururni ham shakllantirmay turib, O`zbekistonimiz mustaqilligi barqaror, uning kelajagi buyuk bo`lishiga to`la erisha olmaymiz. Milliy g`urning shakllanishi va rivojlanishi ko`proq iqtisodiy sohaga, ya`ni to`qchilikka, moddiy noz-ne`matlarning etarlicha to`kinligiga ham ko`p jihatdan bog`liqdir. Shu sababli, milliy istiqlol mafkurasini xalqqa singdirishning siyosiy tomonlaridan biri bu - iqtisodiy sohadir. Avvalo, el-yurt uchun etarli miqdorda, keyin esa eksportga yuboriladigan sifatli moddiy boyliklarni ishlab chiqarmasak, milliy g`ururimizni yuksak darajada ko`tara olmasligimiz tabiiydir. etarlicha to`kin va sifatli mahsulot esa xalqimizning jo`shqin mehnati asosida yuzaga keladi. Bugun xalq, har bir fuqaro ongli mehnat tsilgandagii, mahsulot sifati oshadi, miqdori ham ko`payadi. Jahon andozalari darajasidagi sifatli mahsulotni ishlab chiqarib, eksport qilish xalqimiz milliy g`urchurini rivojlantirishning muhim omillaridan biridir.

Milliy mafkurani xalqqa singdirish uchun o`tkaziladigan har bir tadbir xo`ja ko`rsinga o`tkazilmasdan, balki, astoydil, vijdonan amalga opshrilishiga erishish kerak. Har bir ma`ruzachi dalillar asosida tinglovchining fikrlash qobiliyatini shu darajada uyshtishi kerakki, u iqtisodiyot sohasida bilimi etarli bo`lmasa, beixtiyor bilim olishni o`z oldiga maqsad qilib qo`ysin, ta`bir joiz bo`lsa, o`zligini iqtisodiy jihatdan ham anglashga harakat qilsin.

Milliy istiqlol g`oyasi va mafkurasini targ`ib qilish uchun targ`ibotchilarimizning hozirga qadar egallagan iqtisodiy bilimlari kamlik qiladi. Sababi, ko`pgina targ`ibotchilar keng ko`lamda ma`ruza qilib, barcha sohani umumiy jihatdan qamrab olishga harakat qilganlar. Natijada ma`ruza oldiga qo`yilgan maqsad ham mavhumlashgan. Shu sababi, ma`ruzalarga milliy istiqlol g`oyasi nuqtai nazaridan yondashilsa, maqsadga muvofiq bo`ladi. Bu ma`ruzalar qisqa, mantiqan kuchli, g`oyadagi chizgilar hamda shiorlar asosida tuzilgan bo`lsa, samarali, ta`sirchan bo`ladi deb o`ylaymiz. Ma`lumotlarimiz umumiylikdan alohidalikka k;arab yo`nalgan bo`lishi kerak.

Itstisodiy soha bo`yicha millmy g`ururni shakllantirmsh uchun yuqoridagi fikrlarni mustahkamlash maqsadida hozir mamlakatimizda etishtirilayotgan paxta,

ipak, qorako'l hamda paxtani qayta ishlash, qishloq xo'jaligi va to'dimachilik mashinalari, oltin, foydali qazilmalar, radiotexnika mahsulotlari va turli xalq iste'moli mollari, umuman, moddiy boyliklarimiz to'g'risidagi ilmiy asoslangan dalillar va ma'lumotlarga ega bo'lish zarur. Ishlab chiqarishimizning bu etakchi sohalarini tilga olganda, ularni boshqa mamlakatlar bilan taqqoslab gapirish maqsadga muvofiqdir.

Xullas, milliy g'urur avvalo, iqtisodiy jihatdan o'z-o'zini anglashdan boshlanishi, har bir kishi iqtisodiy sohada ustuvor bilimga ega bo'lishi kerak. Uz-o'zini iqtisodiy jihatdan anglash, har bir kishidan o'z ustida qo'shimcha ishlashni, bilim doirasini kengaytirishni talab etadi. Albatta, o'z-o'zini anglash nafaqat iqtisodiy sohani bilish, balki o'z tarixini, ona tili, dini, avlod-ajdodlarini, milliy urf-odatlarini, axloqiy karashlari, an'analari, o'z xalqinint dunyo madaniyatini rivojlantirishga qo'shayotgan hissasini va boshqa ko'plab jarayonlarni mukammal bilishni talab etadi. Binobarin, shu jarayonlarni har bir shaxs mukammal bilmas ekan, odatdagi muloqotda yoki chet mamlakat kishilari bilan suhbatlarda o'zining kim ekanligini, avlodlari kimligini tanita olmaydi.

Ma'lumki, milliy g'urur insonning rangi, gavda tuzilishi, irqi, jinsi yoki diniga qarab belgilanmaydi. Milliy g'urni bu alomatlarga tsarab belgilovchilar qattii; adashadilar, undaylar shovinistlardir. Aslida bunday kishilarning dunyoqarashi buzilgan bo'lib, bilim saviyasi sayozdir. O'zbek xalqi bunday tsarashlarni o'ziga yot deb biladi, o'z milliy g'ururini millatning insonparvarlik xislatlaridan kelib chiqib yuksaltiradi. Islom va boshqa dinlarning bu sohadagi ijobiy tomonlariga e'tibor qiladi.

Iqtisodiy soha bilai bir qatorda milliy g'urni yanada yuqoriroq darajaga ko'tarishning ikkinchi muhim bir jihati - bu ma'naviy etuklikni egallashga bog'liqdir. Jamiyatimizdagi kishilar o'z mutaxassisligi, ishlaydigan sohasini yaxshi bilishi mumkin. Lekin, ma'naviy etuklik bo'lmasa, milliy g'urni ko'tarish, uni targ'ib qilish amrimaholdir. Ma'lumki, Prezidentimiz tashabbusi bilan keyingi yillarda ko'plab talabalar, tadbirkorlar, tuman, shahar, viloyat hokimliklari vakillari chet ellarga bormoqdalar. Kelajakda bu ish yanada rivojlanishiga aminmiz. Xorijga

borayotgan har bir kishi o`z xalqining milliy g`ururi qirralarini mukammal bilishi zarur. Ayniqsa, hozirgi talabalarimiz milliy g`ururni, uning qirralarini bilish bilan birga, uning targ`ibotchilari ham bo`lishlari kerak. Talabalarni targ`ibotchilar tsilib etishtirishni esa maktabda o`quvchilik davridan boshlash zarur. Maktab o`quvchilarinisch- ko`pchiligi kelajak talabalardir. Mustahkam bilimni, ma`naviyat, kadriyat, urf-odatlar, udumlarni hamda allomalarimizning ta`limotlarini o`quvchilarga hozirdan keng dasturlar, puxta darslik va rejalar asosida tushuntirishni boshlash - davr talabi. Zero, o`quvchilar talaba bo`lganlarida bu bilimlar ular uchun puxta zamin vazifasini o`taydi. Aynan shu bilimlar kelajak uchun bebaho ekanligi va milliy g`ururni shakllantirishda ham o`ta muhim omil bo`lishi aniq.

Buning uchun ayniqsa, ijtimoiy fanlar o`qituvchilari, barcha murabbiylar mas`uliyatni his qilishlari, jonkuyar bo`lishlari lozim. Kelajakda chet mamlakatlarga borayotgan talabalar ham o`z zimmasiga katta mas`uliyatni olib, borgan mamlakati madaniyatini tezda o`ziga singdirib, o`z xalqi madaniyatini uyg`unlashtirish hamda o`z millatiga xos bo`lgan g`ururni o`rni bilan targ`ib qilishni o`ylab boradilar. Ma`lumki, xorijga kadam qo`ygan kishilarga e`tibor o`n karra oshadi. Salomlashish, muloqot qilish, mehmonxonada yashash, kiyinish, suhbat qilish, kishilarga munosabat, urf-odatlar barchasi hushyorlikni talab etadi. Afsuski, borgan kishilarning hammasi ^am bularning o`ta muhimligiga hamisha e`tibor beravermaydi. Sir emaski, chetga borayotgan ba`zi sayyohlarimiz xorijga borganda kiyim-kechak, sovg`a buyumlariga diqqatni ko`proq qaratadilar, imkoniyat bo`lsa, o`sha buyumlardan ko`proq olib qaytishni o`ylaydilar. Milliy gurur to`g`risida o`ylash esa, afsuski, yodimizdan ko`tarilar darajada bo`ladi. Axir biz, buyuk jahongirlar, mo``tabar mutafakkirlar, ulug` allomalar avlodimizku! Ular timsolida o`zbek xalqining kim ekanligini, o`zbek xalqining jahon madaniyatiga, umuminsoniy qadriyatlarga ko`shgan ulkan hissasini endi dunyo ahli biladigan payt keldi-ku! Endilikda, barchamiz o`zbek xalqini dunyo ko`zi o`ngida yana bir pog`ona ko`tarishga harakat qilishimiz kerak emasmi? Milliy madaniyatimiz va axloqimizning mustahkam zaminga ega ekanligini endi olamga ko`rsatishimiz kerak

emasmi?

Ming afsuski, oramizdan chiqqan ayrim o`zbek "vatanparvar" lari milliy g`ururimizni ham mutlaqo unutib, faqat o`z shaxsiy manfaatlarini o`ylab, chetdan turib, ona-Vatanga tosh otmoadalar. Anikrog`i "Ozodlik", "Bibisi", ba`zan Rossiya ommaviy axborot vositalari eshittirishlarini eshitib, xorijda chiqadigan gazetalardagi tirnoq ostidan kir qidiruvchi ba`zi bir maqolalarni o`qib, beixtiyor g`azabing keladi. Amalda yurtboshimiz tufayli dunyoning ko`pgina yirik va ilg`or mamlakatlari o`zbek xalqini, uning madaniyatini, mustaqil davlatini tan olib hurmat- ehtirom ko`rsatsa-yu, o`zimizdan chiqqan uch-to`rt nafar "vatanparvar"- lar esa milliy g`ururimizni unutib, egan non-tuzini oqlash o`rniga tuzluqqa tupursa, bu qaysi aqlga sig`adi. Shu "vatanparvar"lar birorta kamchiliksiz davlatni topib bera olarmikanlar. Albatta, yo`q . Shunday qiyin bir sharoitda O`zbekistonning nisbatan to`qligi va tinchligini nega sezib, sezmaslikka oladilar, oqni qora deb ko`rsatishga urinadalar. O`zbekistondagi o`tish davri qiyinchiliklarini ayuhannos solib qoralaydilar. Ular kimlarning nog`orasiga o`ynamoqdalar?

Har bir targ`ibotchi bu voqea, hodisalarni hisobga olishi uchun uni ilmiy talqin k;ila bilishi lozim. Albatta, bular haqida fikr yuritish uchun ham chuqur bilimga ega bo`lish talab qilinadi. Demak, "Odamdan yuqori turarkan olam, bilim olmoqlikka muhtojdir odam"- degan naqlga amal qilib, milliy istitslol g`oyasini tinglovchiga singdirish uchun har bir targ`ibotchi o`z ustida ishlashi davr talabidir.

Yurtboshimizning milliy g`ururni tiklash maqsadida olib borayotgan sa`y-harakatlari tahsinga loyiadir. Prezidentimiz qaerga bormasin, u o`sha mintatsa yoki davlatdagi aholining o`zbek xalqiga bo`lgan hurmatini oshirib, o`zbekona milliy madaniyati va qadriyatlarini, o`ziga xos xususiyatlarini yuksak darajada namoyish qilib qaytadi. Yurtboshimizning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi majlisida so`zlagan ilmiy amaliy nutqi to`g`risida ham dunyo matbuotida ko`p iliq so`zlar aytilganligining guvohimiz.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, milliy g`ururni aholiga yanada chuqurrok; singdirish va uni yuksak darajasiga ko`tarish uchun katta kuch-g`ayrat sarflash lozim bo`ladi. Bu ish eskirgan shiorlar, dabdabali yig`ilishlar, haybarakallachilik

bilan o`tkaziladigan ommaviy tadbirlar orqali bo`lmaydi. Bu bilan kerakli natijaga erishish qiyin. Xalqimizda shunday udumlar, urf-odatlar borki, ular milliy g`ururni rivojlantirishga juda qo`l keladi.

Mustaqillik kuni, Navro`z va Hayit bayramlari, Vatan xizmatiga yuborish arafasidagi tadbirlar, hosillar sayili, Xotin-qizlar bayrami, Konstitutsiya nishonlanadigan kun, aholining to`y marosimlari, yubileylari, xotira kunlari, salom va alik, gap-gashtak, hovli to`ylari, hashar, ziyoratlar shular jumlasidandir. Bu tadbirlardan barcha targ`ibotchi va notiqlar ko`ngildagidek foydalana olmayotirlar. Shu sababli respublika Ma`naviyat va ma`rifat Kengashi qoshidagi targ`ibotchilar guruhlar vakillari bu muhim ishda o`ta bilimdon va tadbirkor bo`lishlari kerak. Binobarin, milliy g`ururni ko`tarish har bir fuqaroning aqliy va mehnat faoliyatiga katta ruh bag`ishlaydi. Bu esa bizga jamiyatimiz oldida turgan qiyin muammolarni echishda yordam beradi.

Davlatimizning ezgu muddaosi va vazifalaridan biri bu - bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy, demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishdir. Demak, milliy istiqlol g`oyasi bilan bu vazifa mushtarak bo`lsa jamiyatimiz rivojlanishi, taraqqiy etishi tezlashadi. Ayniqsa, tinglovchilar va talabalar bilan ish olib borish mobaynida milliy istiqlol g`oyasining demokratik jarayonlar bilan chambarchas bog`langan jiddiy tushuntirish ishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma`lumki, shaxs faoliyati ko`p qirralidir. Bu qirralar rivojlanipsh uning etuk xodim sifatida shakllanishiga erdam beradi. Shu qirralardan biri shaxsning demokratiya to`g`risidagi bilimidir.

«Demokratiya» so`zi va uning jamiyatda tutgan o`rni qadimiy bo`lsa ham, shaxs uchun "yangi"dir. Inson alohida muhitda shaxs bo`lib shakllanmaydi, balki ota-ona tarbiyasi, bolalar bog`chasi, maktab, o`quv yurti va jamoada tarbiyalanadi. Shu sababli u demokratik jarayonlarga har xil holatda duch keladi va undan o`ziga hulosa qila boshlaydi. Demokratiya va milliy istiqlol g`oyasining shaxsda shakllanishi juda murakkab kechadi. Chunki, u o`zining qadr-qimmatini yuqorida ko`rsatilgan atrof-muhitdan kelib chiqib anglay boshlaydi. O`z qarashlarini, his-tuyg`ularini shakllantiradi. Burch va mas`uliyatini sezadi. Demak, shaxsim

manfaatni milliy istiqlol g`oyasi bilan aloqada ekanligini jonli qilib tushuntirish esa murabbiy o`qituvchining asosiy vazifasi bo`lishi lozim. Buning uchun u huquqiy jihatlarni chuqur o`rgangan bo`lishi kerak.

«Aholiga chuqur huquqiy bilim berishni yo`lga qo`yish, bu orqali huquqiy madaniyatning yuksalishiga erishish, boshqacha aytganda, tom ma`nodagi huquqiy ongni shakllantirish talab etiladi. Bu jamiyatning to`g`ri, demokratik yo`ldan rivojlanishi uchun zarurdir. Chunki, huquqiy tafakkur shakllanmasa, turli xil nomutanosibliklar kelib chiqadi» yoki ta`kidlash lozimki, ko`pgina kishilar hozirgi kunda ham demokratik jarayonlar, huquqiy qonunlar asosida shakllanishini yaxshi tushunib etmayotirlar. Natijada, ba`zida jamoada yashlaydigan rahbariyat bilan shaxslar o`rtasida kelishmovchiliklar ham ro`y berib turibdi. Shu sababli, "Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillari" dan dars beruvchi barcha o`qituvchilarning o`zlari ham huquqiy qonunlarni mukammal bilishlari, "men huquqshunos emasman", deb turmasdan, har bir darsdayoq imkoniyat va zaruriyat bo`lganda tinglovchilarga huquqiy bilimlarni ham disman bo`lsa-da etkazishlari lozim. Bu vazifani bajarish fidokorlikni, ijodiy yondashishni talab etadi. O`qituvchining o`zi milliy istiqlol g`oyasi uchun jonkuyar bo`lmasa maqsadga erishib bo`lmaydi. Aks holda davr talabi-demokratik jarayon ham amalga oshmaydi. Binobarin, shaxs hayotda, ishlab chiqarishda qatnashishi natijasida ko`p narsa va hodisalarni hal eta oladi.

Zero, milliy istiqlol g`oyasining hayotga tatbiq etilishi va demokratik tamoyillarni amal qilishi, davlat, jamiyat, fuqarolarning o`zaro munosabatlaridagi qonuniylikka asoslanadi. Bu uch sub`ektning manfaatlari o`zaro mos tushgandagina osoyishtalik va barqarorlik, farovonlik amalga oshadi. O`quv jarayonida yoshlarga ana shu xususiyatlar turli yo`llar bilan singdirila borilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda milliy istiqlol g`oyasi tamoyillaridai foydalanib, demokratiyaning turli jarayonlari singdirilishi yaxshi samara beradi. U Konstitutsiya bilan ham bsjpanishi zarur.

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy xususiyati ham shundaki, unda yuqoridagi sub`ektlar ham ustuvor yo`nalishlar qilib belgilangan. Shunday



ekan, bu sub`ektlarning burch va mas`uliyatlari ham mavjud. Har bir fuqaro o`zining burchini yaqqol anglashi lozim. Masalan, ijtimoiy guruh sifatida talabalarning faoliyatini oladigan bo`lsak, talabalar ham o`z hukuqlariga, ya`ni bepul va pulli o`qishi, erkinligi, yotoqxonalaridan foydalanishi, saylovlarda qatnashishi, boshqaruvda ishtirok etishi, uyushma, partiya va boshqa tashkilotlarga kirishi, dam olishi, xohlagan diniga e`tiqod qilishi, mehnat qilishi, taklif va shikoyat qilishi, kutubxonalardan, jamoat joylaridan foydalanishi, tazyiqlardan muhofaza qilinishi va boshqalarga ega. Ularning burchlari esa ko`proq vijdon amri bilan bog`liqdir. Binobarin, milliy istiqlol g`oyasini tushunib etish ham talabaning burchidir.

Ammo, burch elementlarini, mas`uliyat jarayonlarining shakllanishini talabaning shaxsiy ishidir, deb qo`yish ham o`rinsizdir. Kundalik faoliyatda har bir o`qituvchi tomonidan bu burch va mas`uliyatlar ma`lum imkoniyatlar topib "Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" darsining muammolarini o`tayotganda talabaga ko`proq tushuntirilishi, ongiga sintdirilishi lozim.

Har bir oliy o`kuv yurti talabasining burchi - bilim maskani nufuzi uchun kurashish, bilim maskanidagi nojo`ya bo`ladigan harakatlarga loqayd bo`lmasligi, bilim yurtining asbob-uskunalari, laboratoriya jihozlarini ko`z qorachig`idek saqlashi, topshiriqlarni o`z vaqtida bajarishi, jamoat joylarida tartibni saqlatga ko`maklashishi kabilardir. O`z navbatida bular ham milliy istiqlol g`oyasini hayotga tatbiq etishning elementlaridir. Garchand burch va mas`uliyat qonunlarda qat`iy ko`rsatilgan bo`lmasa ham, aslida bularga rioya qilish talabaning keyinroq etuk shaxs bo`lishida muhim omil bo`lib xizmat qiladi. Burch deganda, faqat yukoridagi sohalar bilan cheklanib kolinmaydi. Jumladan, talabaning yotoqxona, fakul`tet, yoki akademiya institut miqyosida bo`ladigan jamoat ishlarida qatnashishi, shu joylarni bezatishda ishtirok etishi, shahar va Respublika miqyosida o`tkaziladigan tadbirlarda (talab etilganda) hozir bo`lishi kabilar ham talabada ijobiy xislatlarning jumladan, milliy istiqlol g`oyasining shakllanishiga yordam beradi. Fuqaroning shaxs sifatida shakllanishiga yordam beradigan omillar turlichadir. Bular quyidagilardan iborat:

fuqarolarga qonuniy hujjat va me`yorlarni "Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" doirasida o`rgatish;

urf-odatlar, qadriyatlar, allomalar fikrlarini tushunarli qilib singdirib borish;

milliy burch tafakkurining dunyoviy burch tafakkuri bilan bog`liqlig`ini uqdirish;

o`tiladigan dars va suhbat, muloqotlarda fuqaroning burch hamda mas`uliyatlarini jonli tarzda ko`rgazmali qilib tushuntirish. Bunda "Ma`naviyat" nashriyotidan chiqarilayotgan ko`rgazmali hurollardan foydalanish;

burch va mas`uliyat haqida referat mavzularini tayyorlash hamda tegishli paytda fuqarolarga tarqatish, ulardan shu sohada referat yozishni talab qilish;

jamiyat tarixida fuqarolar burchi va mas`uliyatlarini

solishtirgan hrlida, ularni o`zgaruvchanligiga diqqatni tortish;

burch va mas`uliyatning milliy istiqlol g`oyasini shakllanishi va jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini eslata borish;

shaxsiy manfaat bilan jamoat manfaatlarishshg mushtarakligi haqida suhbatlar o`tkazish, shu sohada yozilgan asarlar, yaratilgan fil`mlar tavsiya etish va boshqalar. Bu omillar umuman shaxs faoliyatida demokratik jarayonni shakllantirishda ummondan bir tomchi xolos. Lekin ushbu omillar bilan qonunlar o`rganilishi, ularning ustuvorligini ta`minlanishi amalga oshirilsa, nur ustiga a`lo nur bo`ladi. Ayni paytda jamiyatimizni demokratlashtirish fuqarolar faoliyatiga ham bog`likdir. Fuqarolar jamiyatdagi turli sohadagi xodimlardir. Taraqqiyotni esa shu xodimlar harakatga keltiradi. Xodimlarda milliy istiqlol g`oyasining shakllanishi hamda huquqiy madaniyat va burch, mas`uliyat birlashmasi jamiyatning olg`a qarab siljishi murakkab kechadi. Chunki, erkin shaxsni tarbiyalash bozor munosabatlari bilan ham bog`liqdir. O`z navbatida bozor munosabatlari yangi ijtimoiy munosabatlarni paydo qiladi.

## **2.2. Ma`naviyat va jamiyatning yangilanishi**

Hurmatli Prezidentimiz «Bugungi kunda mamlakatimizda yangi hayot, yangi jamiyat poydevorini barpo etishda erkin fuqaro ma`naviyatini shakllantirish masalasi biz

uchun g`oyat dolzarb ahamiyatga ega»<sup>1</sup> degan edi.

Hayotimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko`lamli islohotlarimizning samaradorligi avvalo xalq ma`naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning chuqur o`rganilishi, an`ana va urf-odatlarimizning saqlanishi, madaniyat va san`at, fan va ta`lim rivoji, eng muhimi, jamiyat tafakkurining o`zgarishi va yuksalishi bilan uzviy bog`liqdir.

«Bugungi kunda oldimizda turgan eng muhim vazifalarni ko`z o`ngimizdan o`tkazar ekanmiz dedi Prezidentimiz aholining kundalik ehtiyojlariga bevosita daxldor dolzarb masalalarni hal qilish bilan bir qatorda biz eski tuzum davrida inson hayotining negizi va murakkab tomonlari, milliy qadriyatlar, tarixiy an`analar, umuminsoniy ma`naviy boyliklar bilan hisoblashmaslik jamiyatimizga qanchadan-qancha zarar keltirganini unutmasligimiz kerak.

Birinchi navbatda milliy madaniyatimiz, xalq ma`naviy boyligining ildizlariga e`tibor berish zarur. Bux xazina asrlar davomida misqollab to`plangan. Tarixning ne-ne sinovlaridan o`tgan. Insonlarga og`ir damlarda madad bo`lgan. Bizning vazifamiz – shu xazinani ko`z qorachig`imizdek asrash va yanada boyitish.

So`zda emas, amalda har bir kishining vijdon erkinligini, e`tiqod erkinligini ta`minlashimiz kerak. Biz odamlarning ma`naviy tarbiyasini o`ylab, tinchlik va xayrli ishlarni ko`zlab harakat qilayotgan har bir kishini qo`llab-quvvatlaymiz, ular bilan hamkorlik qilamiz dedi Prezidentimiz.

Va nihoyat, shu sohalarida ishlayotgan kadrlar masalasi. O`qituvchilar va shifokorlar, madaniy-oqartuv muassasalaridagi va boshqa sohalaridagi ko`plab mutaxassislar – chinakam ziyolilardir.

Ayniqsa, olimlar va ijodkor xodimlarimizga e`tiborni kuchaytirish kerak. Chunki ma`naviy boyliklarni aynan shular yaratadi. Ularga gamxo`rlik qilish, samarali faoliyati uchun barcha zarur moddiy-ma`naviy sharoitlarni yaratib berish davlat hokimiyati va xo`jalik tashkilotlari rahbarlarining burchi va mas`uliyatli vazifasidir.

Yana bir dolzarb vazifa – o`sib kelayotgan avlodga, uning ma`naviy tarbiyasiga nihoyatda katta javobgarlik hissi bilan yondashish masalasi. Nega deganda, yoshlar xalq

---

<sup>1</sup> «Yuksak ma`naviyat engilmas kuch» 76-b.

ma`naviyatining munosib egalaridir. Shuning uchun har bir o`g`il-qizimiz dastlabki qadamlaridan boshlab madaniy boyliklarimizdan bahramand bo`lishi kerak.

Iste`dodli yoshlarimizning, yigit-qizlarimizning o`z qiziqqan sohalarida etuk insonlar bo`lib etishishi uchun tegishli shart-sharoitlar hali to`la yaratilgani yo`q.

Agarki biz o`zimizning ma`naviy burchimizni oqlashni istasak, ularga otalarcha g`amxo`rlik qilishimiz kerak. Ana shu maqsadda biz ularning mamlakatimiz va chet ellardagi nufuzli ilmiy markazlarda ta`lim olishi uchun mablag`lar ajratdik. Bu ishlar uchun narsani, shu jumladan, valyutani ham ayamaymiz.

Keyingi paytda san`atda oshkoralikni pesh qilib, televizor, kino ekranlarida, matbuot vositalarida bo`lmag`ur lavhalarni aks ettirish, bema`nilik va hayosizlikni, ba`zan esa, hatto axloqiy buzuqlikni targ`ib qo`payib qoldi.

Barchamiz – qaerda, qanday lavozimda ishlamaylik, jamiyatimizning insoniylik va axloqiy aqidalarini poymol qiladigan ana shunday tajovuzkorlik ko`rinishlariga qat`iy ravishda qarshi turishimiz lozim. Bunday munosabat jamoatchiligimiz, xalqimizga ham ma`qul bo`ladi, deb ishonaman».

### 2.3. Mustaqillikning ma`naviy asoslari.

Har bir xalq jahon madaniyatiga o`zining ulkan hissasini qo`shadi. Milliy madaniyat hozirgi davrning tarixiy jarayonlaridan tashqarida rivojlana olmaydi. Bir millatning boshqa millat yutuqlarini o`zlashtirib olish uning madaniyatining yashash qobiliyatini, yashovchanligini ta`minlovchi muhim mezonidir. O`z millatini boyitib, o`zining ma`naviy qadriyatlarini boshqa millatlar bilan baham ko`rish odamlarning bir-birini tushunishlarini va boshqa millatga mansub bo`lgan qadriyatlarni idrok etishlarini ta`minlaydi.

Lekin, tan olib aytish mumkinki, bugungi hayotimizda milliy madaniyatga boshqacha yondashuvlar va qarashlar ham mavjud. Xususan milliy madaniyat umuminsoniy madaniyatning teskarisi deb talqin etish milliy madaniyat bu arxaizmdir va u tarix sahnasidan ketishi muqarrar (kelajagi yo`q deb hisoblash), umuminsoniy madaniyat milliy madaniyat bilan kelisha olimaydi, unga yot, umuminsoniy madaniyat milliy bo`lmagan madaniyatning sun`iy tipidir degan

qarashlar shular jumlasidan. Bunday qarashlar bilan kelishib bo`lmaydi. Gap shundaki madaniyat o`zida hamma vaqt milliy elementlarni mujassamlashtiradi. Uni inkor etib bo`lmaydi. Real madaniy amaliyotni inkor etish mumkin emas. Shuning uchun ham, milliy madaniyatlarning bir-birlari bilan hamkorligi va uyg`unligi g`oyasi strategik ahamiyatga egadir.

Milliy borliqning chegaralari kengayib bormoqda. Hayot shunda o`zgaryaptiki, biz uzoq vaqtlar milliy deb hisoblagan belgilar insonlar turmushi va ongidan chiqib ketmoqda. Lekin, insonlarni o`zaro bog`lab, yaqinlashtirib turadigan ko`pgina narsalar umumiy taqdir, umumiy davr, vaqt va makonga egadir.

Bunda muhitni, konkret vaziyatni, eng muhimi yangi insonlar ruhiyatini ham hisobga olish lozim.

Madaniyatning milliy o`ziga xos xususiyati-bu uzoq o`tmishdan kelayotgan milliy xususiyatlar majmuigina emas, balki "Milliylik" tushunchasi faqatgina, tajriban o`tgan va shakllangan jihatlar emas, balki hozirgi voqelikda shakllanayotgan jihatlarni ham o`z ichiga oladi.

Insonlarning o`z milliy madaniyati negizlarini bilishga intilishi tabiiy va qonuniy holdir. Milliy o`z-o`zini anglash fenomeni ham tabiiy hodisadir. U millat yaxlitligining mezoni, inson madaniyati, tarixi uzviyligini, bir butunligini ta`minlovchi vorislik iplarining namoyon bo`lishidir.

O`zbekiston insonni qadrlash, uning ma`naviy dunyosini boyitish, demokratik islohotlar markaziga inson shaxsini, uning manfaatlarini qo`ygan. Jamiyatning ma`naviy yangilanishi inson shaxsining ma`naviy kamoloti tufayli sodir bo`ladi. Shuning uchun milliy qadriyatlarning shaxs ma`naviy kamolotiga va jamiyatning ma`naviy yangilanishiga ta`siri maxsus tadqiq etildi. Bu jarayonlar<sup>3</sup>:

-ma`naviy yangilanishning bosh mezoni qilib insonning har tomonlama kamolotini;

-shaxsning ijtimoiy o`zgarishlar sub`ektiga aylantirishni;

---

<sup>3</sup> Темирова Н. Талаба ёшларнинг маънавий шаклланишида миллий ва умуминсоний кадриятлар диалектикаси. Фалсафа фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. -Т.: 2007. 123-124 бетлар.

-ma`naviy yangilanishni xalqimiz tarixiy-madaniy merosi va an`analariga asoslanishini;

-jamiyatning barcha sohalarini ma`naviy boyliklar yaratishga yo`naltirishni;

-xalqaro aloqalarda umuminsoniy ma`naviy boyliklarni o`zlashtirishni;

-millatlararo va xalqlararo munosabatlarda ahillik, tinchlik, hamkorlik, birodarlik, hamjihatlikni ta`minlashni;

- yoshlarning ilm-fanni egallashga intilishini ta`minlashni;

-yuksak madaniyatli, ma`rifatli yoshlarni voyaga etkazish uchun zarur tashkiliy-amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqishni;

-ijtimoiy-ma`naviy tarbiya jarayonida uzluksizlikni ta`minlash, barcha madaniy-tarbiyaviy jarayonlarni milliy istiqlol g`oyasi asosiga qurishni taqozo etadi.

Ma`naviy yangilanish negizida shaxs, har bir yosh yigit va qiz qalbida erkin yashash, dunyodagi ilm, ma`rifat, taraqqiyot darg`alari bilan bahslash olish ishtiyoqini uyg`otish, buning uchun esa tinmay o`qish, o`rganish va izlanish ko`nikmasini shakllantirish yotadi.

Shu ma`noda milliy o`zlikni anglashning rivojlanganlik darajasi millatning ma`rifiylashganlik mezonini bildiradi. Boz ustiga madaniy vaziyat milliy o`z-o`zini anglashning namoyon bo`lishi uchun yangi shart-sharoitlar yaratmoqda.

Haqiqiy milliy o`z-o`zini anglashga boshqa millatni qabul qilaolmaslik yotdir. Lekin bu hodisa millatchilikka ham aylanib ketishi mumkin. Millatlar o`rtasidagi ixtiloflar esa millatning o`zining ichidagi qarshiliklarga, nosog`lom urug`-aymoqchilikka olib kelishi mumkin. Ayrim joylarda milliy o`zlikni anglash va tiklanish milliy ixtiloflarga aylanib ketish hollari yuz bermoqda. Millatchilik va seperatizm halqlar o`rtasidagi ixtiloflarning yangi to`lqinining yuzaga qalqib chiqishiga zamin yaratishi mumkin. Keyingi vaqtlarda "vatanparvarlik" tushunchasi ko`proq ishlatiladigan bo`lib qoldi. Ammo Vatanga muhabbat doimo muqaddas va sof tuyg`u bo`lgani uchun ham unga ehtiyotkorlik bilan yondashish lozim. Boshqalarni kamsitish hisobiga o`z millatini haddan tashqari oshirib maqtash vatanparvarlik emas, balki vatanparvarlik niqobidagi milliy kalodimog`likdir. Haqiqiy vatanparvarlik asosida milliy bag`rikenglik tamoyili yotadi, millatini va o`z

madaniyatini sevgan holda, boshqa madaniyatda ham arzigulik qadriyatlar borligini anglash qiyin emas.

Shuni ham aytish zarurki, “milliy iftixor”, «milliy g`ururlik takabburlik» tushunchalari bir xil tushunchalar emas.”Milliy g`urur”da oshkora ko`z-ko`z qilmasdan, o`z yutuqlari bilan faxrlanish bo`lsa, “Milliy kibrda”-o`zining kichkinagina yutug`i, xatto o`z kamchiligi bilan ham ortiqcha kekkayish mavjuddir. Bu farqni anglash darajasiga ko`tarilishda boshqa xalqlar va millatlar madaniyatlari bilan o`zaro hamkorlik va aloqada bo`lish tajribasi katta yordam beradi.

Millatchilik, shovinizm, inqchilik-progressiv milliy madaniyatga to`g`ri kelmaydigan, unga begona hodisalardir. Yangi tarix bundan ko`pgina guvohliklar beradi. Madaniyatlarning o`z qobig`ida yashashi, biqlik davri tugab XXI asr ijtimoiy ongida ularning uzviy bog`liqligi g`oyasi qaror topmoqda.

Integratsion jarayonlar milliy madaniyatga xavf solayotgani yo`q. Aksincha taraqqiyot uchun yangi-yangi imkoniyatlarni ochib bermoqda. Qandaydir o`ziga xos siyqalashgan soxta madaniyat yaratishga bo`lgan urinish esa milliy madaniyatga xavf-xatar tug`dirmoqda. Inson ruhiyati andoza, bir xil qolipni xush ko`rmaydi, u o`zini ifodalashning takrorlanmas shakllarini izlaydi.

Xalqlarning milliy o`zligini saqlab qolish va rivojlantirish orqali dunyoda milliy qadriyatlarning inqirozga uchrashining oldini olish, jahon madaniyati taqdiri uchun qayg`urish mumkin. Milliy madaniyatlar integratsiyasi, milliy madaniyatning yo`qolishi, o`zligidan mahrum bo`lishiga emas, aksincha boyitish, o`sishga, imoniyatlarning ochilishiga, har bir xalqdagi milliy an`analarni, o`tmish ma`naviy merosini, tarixiy tajribasini bilishga yordam beradi.

Demak, millatlararo munosabatni uyg`unlashtirish yo`li ko`proq darajada madaniyat orqali yuz beradi. Tabiiyki, xalqlarning o`ziga xosligini, mosligini saqlab qolish muhim. O`ziga xoslik va moslikni ma`naviy qadriyatlar tizimi sifatida qarash lozim, uning tashuvchisi alohida etnik guruhlar bo`lib, o`zining o`ziga xos madaniyati, tarixiy taraqqiyoti davomida shakllantirgan yoki ishlab chiqqan. Shunday qilib, bugungi dunyo Sharq va G`arb milliy madaniyatining murakkab mozaikasi, uning namoyon bo`lishidir.

Istiqlolga erishgan har bir xalq, millat va davlat o`z taraqqiyot yo`llarini qidiradi. Siyosiy hokimiyatni qo`lga olish milliy taraqqiyot uchun dastlabki qadam, barcha muammo ushbu hokimiyatni qo`lda saqlab qolish, kishilar qalbida istiqloлга ishonch uyg`otish va ularni jamiyatni yangilashga jalb etishdadir.

Shuning uchun ham Prezident Islom Karimov o`z mamlakati istiqboli haqida fikr yuritar ekan, quyidagicha ta`kidlaydi: “Mustaqil O`zbekistonning kuch-qudrat manbai xalqimizning milliy qadriyatlarimizga sodiqligidir. Xalqimiz adolat, tenglik, ahil qo`shnichilik va insonparvarlikning nozik ko`rtaklarini asrlar bo`yi avaylab-asrab kelmoqda. O`zbekistonni ma`naviy yangilashning oliy maqsadi ana shu an`analarni qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag`ishlash, zaminimizda tinchlik va demokratiya, farovonlik, madaniyat, vijdon erkinligi va har bir kishini kamol toptirishga erishish uchun shart-sharoit yaratishdir”<sup>1</sup>.

Falsafiy tafakkur asosidagina bu muammolar bilan bog`liq bo`lgan tarixiy, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma`naviy, mafkuraviy masalalarni chuqur ilmiy umumlashtirish, asosiy qonunlari va qonuniyatlarini ochib berish mumkin. Bu boradagi falsafiy umumlashmalar o`tmishning ilmiy yakuni hamda istiqloлни to`g`ri anglash, taraqqiyotga yo`naltirilgan mafkura uchun zarur bo`lgan muhim dastur hamdir.

“Jamiyatning ma`naviy yangilanishida, - deydi Prezidentimiz I.Karimov, - biz bir narsani yaxshi anglab olishimiz kerakki, umumiy va maxsus bilimlarga ega, ongli, tafakkuri har xil “izm”lardan ozod, zamonaviy dunyoqarash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga voris bo`lgan insonlargina fuqarolik jamiyatini barpo etishga va uni yanada takomillashtirishga qodir bo`ladi.

Ta`lim modelidan ko`zlangan bir maqsad bor. Uning vositasida biz dunyodan munosib o`rin olishga, o`zbek nomini yanada keng yoyib tarannum etishga erishamiz.

Bugun xalqaro hayot, kishilik taraqqiyoti shunday bosqichga kirganki, endi unda harbiy qudrat emas, balki intellektual salohiyat, aql-idrok, fikr, ilg`or texnologiyalar har qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Amir Temur bobomizning “Kuch –

---

<sup>1</sup> Жураев Н. Миллий истиқлол мафкураси, шаклланиш жараёни. // Шарқ машъали. 1998. - 3-4 сон. 6 бет.



adolatda” degan mashhur ta`birini bugungi kunga nisbatan qo`llab aytadigan bo`lsak, men unga qo`shimcha qilib “Kuch – bilim va tafakkurda” degan bo`lardim”<sup>4</sup>.

Xulosa qilib aytganda, madaniyatlar milliy va umuminsoniy negizda rivojlanadi bir-birini to`ldirib boradi. Milliy istiqlol g`oyasining bu ikki muhim negiziga tayanishi, O`zbekiston xalqi madaniyati rivoji uchun ham, Respublikamizning dunyo taraqqiyotida munosib o`rin olish uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi zamon yosh avlodini bugungi kun talablari asosida tarbiyalash lozim<sup>5</sup>. Bu milliy taraqqiyotimizning o`ziga xos kafolatidir.

---

<sup>4</sup> Баркамол авлод орзуси. - Т.: Шарқ, 1999. 80 бет.

<sup>5</sup> Сафо Очил. Мустақиллик маънавияти ва тарбия асослари. –Т.: Ўқитувчи, 1995. 105 бет.

## Xulosa

Mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, jamiyat hayotining barcha sohalarida, ayniqsa iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faoliyatda juda katta o'zgarishlar bo'lmoqda. Odamlarimiz ongini huquqiy demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati barpo etish kabi buyuk maqsadlarimizga binoan o'zgarish xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirish, buning uchun esa xalq jamiyat, millat manfaatlariga birday mos keladigan va javob bera oladigan milliy g'oyaning zarurligini davrimiz taqozo etmoqda. Milliy g'oyaning naqadar dolzarbligi, jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyati Prezidentimiz I.A.Karimov asarlarida har tomonlama asoslab berilgan.

Hech qaysi davlat va jamiyat hech bir davrda mafkurasiz yashamagan va yashay olmaydi. Mafkura o'zida jamiyat a'zolarining hayot mazmunini, orzu-intilishlarini o'zida mujassamlashtiradi. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda "Har qanday inson, tabiiyki murod maqsadsiz yashay olmaydi. Binobarin, toki hayot mavjud ekan, mamlakatlar, davlatlar va ularning manfaatlar bor ekan, ular o'z taraqqiyot yo'lini, ertangi kun ufqlarini milliy g'oyasi, milliy mafkurasi orqali belgilab olishga intiladi".<sup>1</sup>

Demokratik jamiyatda amal qiladigan plyuralizm (fikrlar, qarashlar xilma-xilligi) kishilarga o'z hayotiy manfaatlarini, maqsad va intilishlarini aks ettiradigan ilg'or g'oyani tanlash, himoya qilish va rivojlantirish imkonini beradi.

Milliy istiqlol g'oyasini, O'zbekistonning mustaqil taraqqiyot strategiyasini o'zbek xalqining buyuk davlat barpo etish borasidagi maqsad-muddaolarini hisobga olgan holda yoshlar qalbi va ongiga singdirishning muayyan tizimi va ustuvor yo'nalishlari belgilangan bo'lib, bunda jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olishni, ta'lim tarbiya, targ'ibot va tashviqotning samarali usul va vositalaridan oqilona foydalanishni taqozo etadi.

Institutimizda keng ko'lamli ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib borishdan maqsad talabalarning siyosiy, huquqiy, axloqiy, ma'naviy ongini oshirish, ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish va kelajak taqdirini hal qiluvchi ma'naviy etuk yoshlarni

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T.8. T.: "O'zbekiston", 2000, 6-b.

tarbiyalashdan iborat. Axir, YUrtboshimiz: “Ma’naviyatni mustahkamlash uchun mehnat va mablag’ni ayash o’z kelajagiga bolta urish demakdir”, - deb bekor aytmaganlar. Agar ma’naviyatni bir daraxt deb oladigan bo’lsak, yuqoridagi amalga oshirilgan chora-tadbirlar uning ildizini tashkil etadi. Ildizning baquvvatligi esa daraxtning gullab-yashnashi-yu, shirin-shakar hosil berishiga kafolatdir.

## *FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:*

1. Каримов И. А. Ўз келажагимизни ўз кўлимиз билан қурмоқдамиз. 7-жилд. – Т.: Ўзбекистон: 1999.- 308 б.
2. Каримов И.А. Буюк мақсад йўлидан оғишмайлик. // Ўзбекистон: Миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. 1-жилд.-Т.: “Ўзбекистон”, 1996,-203 б.
3. Каримов И.А. Жамиятимиз мафкураси халқни-халқ, миллатни-миллат қилишга хизмат этсин. //Каримов И.А. Биз келажагимизни ўз кўлимиз билан қурамыз 7-жилд. –Т.: “Ўзбекистон”, 1999, 84 б.
4. Каримов И.А. Жамиятимиз мафкураси халқни ҳалқ, миллатни миллат қилишга хизмат этсин. // Каримов И.А. Биз келажагимизни ўз кўлимиз билан қурамыз. 7-жилд.-Т.: “Ўзбекистон”, 1999,-86 б.
5. Каримов И.А. Миллий истиқлол мафкураси халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир.//Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт пировард мақсадимиз. 8-жилд.-Т.: 2Ўзбекистон”, 2000, 491 б.
6. Каримов И. А. Сўз боши 11 Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. –Т.: «Ўзбекистон», 2000, 3-бет учун
7. Каримов И.А. Ўзбекистон миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т.: “Ўзбекистон”, 1996, 81-бет.
8. КаримовИ.А. Истиқлол ва маънавият. Т.: “Ўзбекистон”, 1994, 9-бет.
9. Аъзамов Э. Юксак поғона. Маънавиятнинг оидин йўли. Т.: “Маънавият”, 1996, 32-бет.
10. Жалолов А. Мустақиллик маъсулияти. Т.: “Ўқитувчи”, 1996, 29-бет.
11. Иброҳимов А, Султонов Х, Жўраев Н. Ватан туйғуси. Т.: “Ўзбекистон”, 1996, 111-бет.
12. Маҳмудов Т.. Мустақиллик ва маънавият. Т.: 2001, 9-бет.
13. Муртазо Қаршибой. Янгиланишдан – буюк ўзгариш сари.-Т.: “Ғофур Ғулом нашриёти”, 2001, 40 б.
14. З.Ғофуров, С.Тошев. Маънавият тарбияси. Қарши “Насаф”, 1998, 11-бет.
15. Эркаев К. Маънавият – миллат нишони. Т.: “Маънавият”, 1997, 27-бет.
16. Эркаев А. Эзгулик сари йўналтирилган ирода. “Тафаккур”, 1997 йил, 3-сон 14-бет.
17. ЭшонқуловаА. Маънавият тарбияси. “Мулоқот”, 1997 йил, 1-сон, 20-бет.
18. Юсупов Э. Инсон камолотининг маънавий асослари. Т.: “Университет”, 1998, 34-бет.